

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

**5140800 – PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA YO`NALISHI
BITIRUVCHISI ABDUJALILOVA DILZODA ULUG`BEK QIZINING**

**“MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA
AN`ANALARNING O`SMIR YOSHDAGI O`QUVCHILAR
TARBIYASIDAGI O`RNI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: p.f.n., dotsent K.Turg'unboev

Andijon – 2014

MAVZU: MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA AN'ANALARNING O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILAR TARBIYASIDAGI O'RNI

KIRISH

1 BOB. MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA AN'ANALARNING BARKAMOL AVLOD KAMOLOTIGA TA'SIRI

- 1.1. Mahalla faoliyatida undagi ijtimoiy xususiyatlarning ustuvor jihatlari
- 1.2. O'smirlik yoshining ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatlari
- 1.3. Jamoatchilik nazoratida mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning tutgan o'rnini

2 BOB. MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA AN'ANALARNING O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILAR TARBIYASIGA TA'SIRIDAGI USTUVOR JIHATLAR

- 2.1. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallaning tutgan o'rnini
- 2.2. O'smir yoshdagi o'quvchilar tarbiyasida oila bilan mahalla jamoasining o'zaro muloqoti masalalari
- 2.3. Mahallaning tarbiyaviy ta'sir kuchida va ijtimoiy taraqqiyotida urf-odatlarining tarixiy ahamiyati
- 2.4. Oilalarning vujudga kelishida urf-odatlarining o'rnini

UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday davlatning rivojlanib, taraqqiyot sari odimlab borishi, jahon hamjamiyatiga yuz tutishi ko‘p tomonlama shu yerda yashayotgan insonlarning, xususan yoshlarning cheksiz mehnati samarasiga bog‘liq. Chunki davlatning jon tomiri shubhasiz yoshlardir. Lekin yana shu narsa ma’lumki, yoshlarning davlatni rivojlantirishida ularning keng tafakkur, aql-idrok, milliy ma’naviyatining qay darajada shakllanganligi muhimdir. Demakki, har qanday yosh avlod ham bu kabi sifatarga ega bo‘lavermaydi.

Bu masalani hal etishda yoshlarni dunyo hamjamiyatida yuz berayotgan har qanday o‘zgarishlardan voqif etish, jahon uzra yoyilgan turli aqidaparastlik guruhlar, terrorizm, ekstremizm kabi buzg‘unchi kuchlardan asrash, hamda ularga qarshi kurashuvchi milliy ong, milliy g‘urur va milliy ma’naviyatni tarkibiga oluvchi mafkuraviy immunitetni ravnaq toptirishimiz ayni muddaodir. Aynan ana shu tushunchalar bilan yoshlarni, ayniqsa, respublikamizning turli oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning ongini qurollantirishimiz maqsadga erirish yo‘llaridan birini belgilab beradi.

Bunday ezgu maqsad yo‘lidan og‘ishmay borishimizda bizga cheksiz vatanparvarlik ruhida yo‘g‘rilgan milliy g‘oya, milliy mafkura va milliy ma’naviyatimiz ulkan yordam beradi. Chunki har qanday millat u hoh o‘zbek, hoh rus, hoh yapon bo‘lishidan qat’i nazar taqdirini, kamolga yetayotgan yoshlarning kelajagini ana shunday tushunchalarning qay darajada shakllanganligi belgilab beradi. Shu o‘rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” deb nomlangan asaridan lavha keltirishni lozim topdim. “Shuni aytib o‘tish lozimki, xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash... Tinch va osoyishta hayot, do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o‘z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga

intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida o‘rin tutadi”¹. Mazkur so‘zlardan kelib chiqib, qadim ajdodlarimiz amal qilgan odatlarning, ko‘xna madaniyatimizni tarix orqali o‘rganib olar ekanmiz.

O‘zbek xalqining milliy urf-odat, qadriyat va an‘analari oila va oilaviy munosabatlarda, jumladan bola tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Jismonan baquvvat, aqlan yetuk farzandlarni voyaga yetkazish tamoyili Sharq ijtimoiy tafakkurining va mentalitetining asosiy mazmunini tashkil etadi. Chunki, bolani tarbiyalash orqali mehr-muruvvat tuyg‘ulari shakllangan barkamol insonni voyaga keltiriladi. Bola qadriyati – bu o‘zbek xalqi turmush tarzi, ruhiyati, bolajonlik odatlari, serfarzandlik va ayni paytda sog‘lom, baquvvat, ma‘naviy va jismoniy yetuk avlod yetishtirish an‘analari, tafakkur tarzidir. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, har bir zamonda ham bola tarbiyasi dolzarb muammo ekanligi ishning o‘ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Ajdodlarimiz o‘z nasllarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas Sharq ijtimoiy tafakkuri, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dinimizni va milliy urf-odatlarimizni asrab-avaylab, ana shu ma‘naviy-axloqiy mezonlar asosida sog‘lom avlodni voyaga yetkazganlar. Bu bilan ular millat taraqqiyotiga, davlat mustahkamligiga va mamlakatning sivilizatsiya sari yo‘l tutishga zamin yaratganlar. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, har bir zamonda ham bola tarbiyasi dolzarb muammo ekanligi ishning o‘ta dolzarbligidan dalolat beradi.

Insoniyat tarixida axloq-odob asosiy o‘rin tutadi. Urf-odatlar bilan axloq-odob o‘rtasidagi munosabatning shakllanishida, milliy an‘analar katta rol o‘ynaydi. Uning uchun har bir kishi ana shu urf-odatlar taraqqiyotining nechog‘lik zarurligini bilib olish va bu urf-odatlar boshqa xalqlar udumlaridan nechog‘li farq qilishligini, urf-odatlarning paydo bo‘lishi va yo‘qolib ketish sababini ilg‘ab olishi muhimdir.

Olis o‘tmishni ichiga qanchalik chuqur kirib borilsa, uni o‘rganish shunchalik qiyin bo‘ladi. Chunki, uni tadqiq qilish uchun manbaalarni topish

¹ Qarang: I.A.Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch” asari. T.: “Ma‘naviyat” – 2008, 96-97b

qiyinlashadi. Shunday bo'lsada, mavjud ma'lumotlar topib, uni chuqur tahlil qilib, o'z ajdodlarimiz tarixini adolatli tarzda o'rganishimiz zarur. Aks holda tarixiy ongni tiklab bo'lmaydi. Tarix bizni tayanchimiz. Bu tayanchdan kuch olishimiz, uni yaxshi bilishimiz darkor. Biz tarixni qanchalik qadrlasak kelajagimiz shunday porloq bo'ladi.

Milliy ma'naviyat, milliy mafkura va milliy g'oya ravnaqi bugungi kunda talaba-yoshlarga berilayotgan ta'lim-tarbiya ishlariga ko'p jihatdan bog'liq ekanligi barchamizga yaxshi ma'lum. Shunday ekan bu masalaga ya'ni ta'lim-tarbiya ishlariga endilikda yanada chuqurroq yondashishimiz talab etiladi. Chunki talaba-yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning, ularning ongida milliy ma'naviyatga nisbatan sog'lom dunyoqarashni, e'tiqodni rivojlantirishda bevosita ularga berilayotgan ta'lim-tarbiya sifatining qay darajada ravnaq topganligini o'z vaqtida aniqlab, tegishli chora-tadbirlarni qo'llay olishimiz lozim. Bunday ishlarni amalga oshirishda ta'lim-tarbiya ishlarida «Mahalla» tizimidan keng foydalanishi bizga ko'zlangan pirovard natijalarni beradi. Aslini olganda, azaldan mahalla ta'lim-tarbiyaning beshigi bo'lib hisoblanib kelingan. Aynan ana shu maskanda milliy g'urur va milliy iftixor, o'zlikni anglash, milliy g'oyalar yo'lida sobitqadamlik kabi ezgu tushunchalarning dastlabki kurtaklari unib chiqqan. Demak talaba-yoshlarda ma'naviy muhitni shakllantirishda dastlabki faoliyatni mahalladan boshlab, so'ngra ta'lim muassasasida davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi ishlarni hal etishda esa biz quyidagi vazifalarni amalga oshirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi:

Birinchi vazifa - talaba-yoshlarning sog'lig'ini mustahkamlash. Buning uchun esa mahallalarda hamda ta'lim muassasalariga tegishli sport zallari, maxsus sog'lomlashtirish maskanlari faoliyatini jonlantirishimiz va bu yerga talaba-yoshlarning turli to'garaklarda jalb etilishini muttasil kuzatishimiz, kerak bo'lsa mahallada yashayotgan har bir talaba-yoshlarning qanday sport to'garaklarida ishtirok etayotganligini uzluksiz nazorat qilishimiz lozim.

Ikkinchi vazifa - talaba-yoshlarni dunyoda bo'layotgan o'zgarishlardan vooqif etib turuvchi ommaviy axborot vositalari (OAV), turli klublar, internet

aloqa vositalarining ishini jadallashtirishimiz; ularda asosan sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga oid maqola, ocherk, radio va teleeshittirishlar, kinodasturlar, multimediya o‘yinlarini iloji boricha ko‘proq yuzaga chifarishimiz; ayniqsa, keyingi yillarda talaba-yoshlar o‘rtasida keng yoyilgan turli xil uyali aloqa vositalariga qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Biz esa aynan ana shulardan vosita sifatida foydalansak bo‘ladi. Buning uchun respublikamiz telefon kompaniyalari tomonidan sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga undovchi qisqa-qisqa, lekin ta’siri kuchli bo‘lgan, milliy g‘oyaviy tushunchalar yo‘g‘rilgan ma’lumotlarni , so‘zlarni SMS tarzida uyali aloqa vositalariga yuborishimiz, bu vazifani amalga oshirishimizda esa tegishli mutasaddi tashkilotlar faoliyatini rivolantirish va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Misol tariqasida SMS lar «Siz Vatan uchun nima qildingiz?!», «Vatan ravnaqi sizning qo‘lingizda!», «Siz fidokor insonsiz!» kabi so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Uchinchi vazifa - talaba-yoshlar bilan birgalikda mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligida “Biz sog‘lom turmush tarafdorimiz”, “Mening mahallam-vatanparvarlar makoni”, “Ilm dargohim-ziyo manzili” nomli ko‘rik-tanlovlarni tez-tez o‘tkazib turish ham maqsadga erishishning etakchi yo‘llaridan biridir.

To‘rtinchi vazifa – talaba-yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga ongli munosabatni tarbiyalash bo‘lib, bu ularning gigiena qoidalariga rioya etishi, nosog‘lom muhit haqida ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, kerakli joylarda o‘zlarining ijodiy fikrlashlari, mustaqil g‘oyaviy kuchni egallaganligi, milliy g‘oyalarni qay yo‘ldan borish, sobitqadamlik, nosog‘lom muhitni qanday yo‘qotish kabi tushunchalarni shakllantirishimiz lozim.

Yoshlar tafakkuriga, ularning ongiga, ma’naviyatiga sog‘lom turmush tarzini olib kirishimiz, ularga salbiy ta’sir etuvchi har qanday yovuz g‘oyalarga ta’lim-tarbiya jarayonida talaba-yoshlarni ularga qarshi qurollantirishimiz, mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz shart. Yoshlarni yurtga sadoqat, milliy-ma’naviy tariximizga, qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashimiz lozim. Ana shundagina talaba-yoshlarimiz o‘zligini anglab, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini ongiga singdirib, millat ravnaqiga samarali hissa qo‘sha oladigan fidoiy farzandlar

boʻlib yetishadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, muammoning dolzarbligini inobatga olgan holda bitiruv malakaviy ishi mavzusini **“Mahalla faoliyatida ijtimoiy xususiyatlar va anʼanalarning oʻsmir yoshdagi oʻquvchilar tarbiyasidagi oʻrni”** deb nomladik.

Tadqiqot maqsadi: mahalla faoliyatida ijtimoiy xususiyatlar va anʼanalar jamiyat hayotida dolzarbligini aniqlash va mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqot ob'ekti: mahalla faoliyatida ijtimoiy xususiyatlar va anʼanalarni oʻrganish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: mahalla faoliyatida ijtimoiy xususiyatlar va anʼanalarning mazmuni, ustuvor yoʻnalishlari, tajribalar va hamkorlik aloqalari.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Mavzuga doir pedagogik, psixologik, falsafiy adabiyotlarni oʻrganish, tahlil qilish va umumlashtirish.
2. Mahalla faoliyatida ijtimoiy xususiyatlar va anʼanalarning dolzarbligini asoslash.
3. Oila mustahkamligini taʼminlashda mahalla faoliyatining tutgan oʻrnini aniqlash.
4. Farzand kamolotida oila va mahalla hamkorligidagi ustuvor jihatlarni yoritish.

Tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

- tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-falsafiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar, oʻquv-metodik qoʻllanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish;
- pedagogik kuzatuv;
- pedagogik tajribalarni oʻrganish va umumlashtirish;
- tadqiqot mavzusi boʻyicha suhbatlar tashkil etish;
- tadqiqot natijalarini umumlashtirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari: Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni,

O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlarida o'z-o'zini boshqaruv organlari haqidagi qarashlari, Respublika "Mahalla" hayriya jamg'armasi ma'lumotlari, Hukumat qarorlari, ilg'or tajribalar.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: to'plangan tajriba materiallarini tahlil qilish, umumlashtirish, ijodiy yondashish tadqiqot natijalari asosida mahalla faoliyati va u bilan bog'liq dolzarb masalalar hamda ustuvor jihatlar aniqlandi, rivojlantirish tizimi belgilandi. Tadqiqotning muhim nazariy g'oyalaridan ta'lim muassasalarida pedagoglar, tarbiyachilar, shuningdek o'quvchi-yosh-yoshlar va keng jamoatchilik foydalanishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 7 bo'lim, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 68 sahifani tashkil qiladi.

1 BOB. MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA AN'ANALARNING BARKAMOL AVLOD KAMOLOTIGA TA'SIRI

1.1. Mahalla faoliyatida undagi ijtimoiy xususiyatlarning ustuvor jihatlar

Mahalla (arb. - joy, o'rin, makon) – kishilarning muayyan xududda birgalikda yashashlari tufayli yuzaga kelgan birligi. mahalla - yirik jamoatdir. O'tmishda mahallalarda asosan ma'lum bir kasb-kor odamlari istiqomat qilishgan. Mahallalar ham shunga qarab aytaylik «zargarlik», «misgarlik», «temirchi», kabi nomlar bilan atalgan. Hozirgi kunda mahallalarda bunday «ixtisoslashuv» yo'q. Shu bilan birga, hamkasblar ko'pchilikni tashkil etadigan mahallalar ham yo'q emas. buni poytaxtdagi «professorlar», «shifokorlar», «ishchilar» kabi mahalla nomlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Oilaning farovon va har tomonlama rivojlanishida ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning o'rni katta. Zero, o'smirlar odobni, muomala madaniyatini dastlab oilada, keyin mahallada o'rganadilar. Xalqimizda qo'shnilar bilan tinch-totuv yashash azaldan qadrlanib keladi. «qo'shning tinch – sen tinch», «uzoqdagi qarindoshdan, yaqinidagi qo'shni afzal», «hovli olma – qo'shni ol» kabi maqolalar ana shundan dalolat beradi. Mahalla-ko'y, qo'shnilar yaxshi-yomon kunlarda doimo yondoshdir. Yurtboshimiz Farmoniga binoan «Mahalla» hayriya jamg'armasining tuzilishi mahallaning an'anaviy tarbiya o'chog'i ekanini yana bir bor tasdiqladi, uning zimmasiga zamon talablaridan kelib chiqib, yangi vazifalar yukladi. Ko'p qavatli binolar joylashgan hududlarda ham yangi - yangi mahallalar tuzilgani, respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillari orasida ham mahalla udumlarining keng yoyilgani quvonarli holdir. Endilikda ilg'or fikrli kishilar boshchilik qilayotgan mahallalardagi jamoatchilik fikri muayyan ma'naviy kuch bo'lib qolmoqda. O'zini o'zi boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'analarga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibрати, jamoaning hamjihatligi misolida kishilar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib

boriladi. Mahalla - avvalo, sogʻlom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla axlining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida mafkuraviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt sha'ni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning o'rnini beqiyos. Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan sogʻlom avlodni tarbiyalashga, ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda 2000 yil – «Sogʻlom avlod yili» deb e'lon qilindi va bu borada xukumatimizning maxsus Qarori asosida davlat dasturi qabul qilindi.

24 fevral kuni Oqsaroy Qarorgohida «Sogʻlom avlod» dasturini bajarishga doir ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish Respublika komissiyasining majlisi bo'lib, unda Islom Karimov shu dasturning amalga oshirilishida mahalliy davlat xokimiyat organlarining hamda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarining roli ham nixoyatda katta ekanligini alohida uqtirib o'tdi. Bundan ko'rinib turibdiki, ularning zimmasiga ham talaygina mas'uliyatli vazifalar yuklatilmoqda.

Yurtboshimiz dasturni ijro etish jarayonida birlamchi e'tiborini qaratilishi zarur bo'lgan 6 ta ustuvor yo'nalishlarni alohida belgilab berdi:

1. Ustuvor yo'nalish – balogʻat yoshiga yetgan qizlarimizni maktabdayoq oilaviy hayotga psixologik, jismonan va tibbiy jihatdan tayyorlashni yo'lga qo'yish asosida darslar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

2. Ustuvor yo'nalish – oila qurish faqat ikki yosh o'rtasidagi ish emas, butun jamiyat hayotiga aloqador masaladir. Zero, sogʻlom farzand sogʻlom oiladagina dunyoga keladi. Shu bois yoshlar o'rtasida sogʻlom oila tushunchasini targ'ib etish, ular salomatligini, bir-biriga tibbiy va jismoniy jihatdan mosligini o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi.

3. Ustuvor yoʻnalish – xomiladorlik va farzand tugʻilishi paytida ona va bola salomatligini nazorat qilish, mustahkamlash va saqlash. Davlatimiz rahbari bu borada Respublika akusherlik va ginekologiya institutida boy tajriba toʻplanganini aytib, viloyatlarda institutning boʻlimlarini ochish taklifini bildirdi.

4. Ustuvor yoʻnalish – bir yoshgacha boʻlgan davr chaqaloqlar hayotining eng havfli davri hisoblanishi. Bu davrda ularning salomatligi, tarbiyasiga maxsus eʼtibor talab qilinadi.

5. Ustuvor yoʻnalish – 1 yoshdan 5-6 yoshgacha boʻlgan davrda bola salomatligini mustahkamlash, tarbiyasini toʻgʻri tashkil etish. Bu davr bolani saqlash va jismonan shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

6. Ustuvor yoʻnalish – nogiron bolalarni davlat tomonidan ximoyalashni kuchaytirish, ularning jamiyatni toʻlaqonli aʼzolariga aylanishi uchun shart-sharoitlar yaratishdir.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan 6 ta ustuvor yoʻnalishni hamda dasturda belgilangan chora-tadbirlarni tadbiq etishda, xalqimiz ongida sogʻlom avlod tushunchasini shakllantirishda albatta fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Chunki mahalladagi har bir oila jamiyatning kichik boʻlagidir. Jamiyat esa tinch-totuv yashayotgan, farzandlarini el-yurtga sadoqatli kilib tarbiyalayotgan oiladan manfaatdordir. Mahallaning eng birinchi vazifasi ham mahalla axlining sogʻligi haqida qaygʻurishdir. Albatta, oila aʼzolarimiz, ayniqsa, farzandlarimiz aqlan va jismonan sogʻlom boʻlmas ekan, huquqiy demokratik davlatning bundan keyingi rivojiga hissa qoʻsha oladigan barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazib boʻlmasligi kunday ravshandir.

Oilaviy munosabatlar insoniyatning barcha tarixiy bosqichlarida risoladagiday shakllangan emas, balki u yoki bu holatda jamiyatning yoki oiladagi turli hodisalarning taʼsiri orqali, uning oqibatida turlicha shakllangan. Oilaviy munosabatlar madaniyatining takomillashuvi jamiyat taraqqiyotiga hamda har bir oila aʼzolarining jamiyatda va oilada tutgan oʻrni, mavqei, bajaradigan vazifasi, jamiyat va oilaning erkak va ayol, farzandlarga munosabati, gʻamxoʻrligi, ijtimoiy himoyasiga bogʻliq boʻladi. Oilaviy munosabatlarning yadrosini tashkil etgan er-

xotin munosabatlarini tahlil esak, bu munosabatlar jamiyat va oila o'zgarishi bilan o'zgarib borgan.

Har bir jamiyatning taraqqiyot bosqichida o'ziga xos xo'jalik tizimi va uning dinamikasi, kishilarning ijtimoiy faoliyati, turmush-tarzi, tabiiy o'sish qonunlari, turli demografik belgilari, ularni jamiyatda tutgan o'rni, ta'minot tizimi mavjud bo'ladi. Oilaning tuzilishi, o'z navbatida, oilaviy munosabatlarga va uning madaniyatining shakllanishiga bevosita bog'liqdir. Oila o'ziga xos tuzilishga, murakkab ijtimoiy xususiyatga egadir. Chunki, u o'zida biologik va ijtimoiy munosabatlarni uyg'unlashgan holda aks ettiradi. Buning boisi shundaki, oilada erkak va ayol, qon-qarindoshlik munosabatlari bilan birga ular orqali jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar ham namoyon bo'ladi. Oilani doimo o'zgarib va rivojlanib turishi faqatgina oilaga ta'sir etib turuvchi munosabatlarga bog'liq bo'lmasdan, ichki oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligiga ham bog'liqdir. Oilaning demografik tuzilishi uning ijtimoiy tuzilishining zaminidir. Oilaning ijtimoiy tuzilishi – oila a'zolarining bilim darajasi, mehnat malakasi, ya'ni ularning ijtimoiy tuzilishi uning demografik tuzilishiga, turmush madaniyatiga, oilaviy munosabatlarning axloqiy takomiliga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Chunki har bir oila o'zining alohida demografik va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Chunki u yoki bu oilada er-xotin munosabatlari bo'lmasligi, ota-ona va farzandlar munosabatlari shakllanmay qolishi mumkin. Shuningdek, oilaning shaxsiy tarkibiga bog'liq holda unda er-xotinlik, qon-qarindoshlik munosabatlari turli darajada namoyon bo'ladi. Har bir oila o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida demografik va ijtimoiy tuzilishning o'zgarib borishi bilan oilaviy munosabatlar tuzilishi ham o'zgarib boradi. Oilaviy munosabatlar umumiy tarzda qaralganda, er-xotin munosabati va ota-onalik, farzandlik munosabatlaridan iboratdir.

Oilaning demografik tuzilishi oila turi va shaklini ifodalab, oilaviy munosabatlarning miqdoriy tomonlarini aks ettiradi. Oilaning ijtimoiy tuzilishi uning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra oila turlarini (ishchi, ziyoli, aralash, milliy va baynalminal) ifodalab, oilaviy munosabatlarning sifatini aks ettiradi va alohida xususiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mavjud oilalarning aksariyati to'liq

oilalardir. To'liq oila deganda ota-ona va farzandlardan iborat oila tushuniladi. Bu tipik oilaga xos xususiyatdir. O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati shundaki, hozirda o'zbek oilalarida katta patriarxal oila xo'jaligi ham saqlanib qolyapti. Bunda 2-3 avlod xo'jaligi umumiy bo'lib, ularning iqtisodiy birligining asosi hisoblangan oila mulki faqat oila boshlig'i qo'lida bo'ladi va hamma unga to'la bo'ysunadi. Bunday oilaning bola tarbiyasida ijobiy jihatlari ko'p.

Bu oila turi asosan oilaviy munosabatlarni keng miqyosda amalga oshirish imkonini berdi. O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan, o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy mezonlari aynan mana shunday oilalarda amalga oshiriladi. Bunday oilalarning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bunday oilalarda ertalab barvaqt turish shart. Rizq-ro'z tongda ulashiladi. Ikkinchidan, yuz-qo'lini yuvmasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'lini yuvgandan so'ng kichiklar kattalarga salom beradilar. Ayollar nonushta hozirlaydilar, qiz-kelinlar hovli supurib ishga boradilar. Bunday oilalarda oila boshlig'i yoshi ulug' odam hisoblanadi. U oiladagi barcha ishlarni boshqaradi. Bunday oilalarda katta yoshlilar bolalarga, balog'atga yetgan farzandlari, kelinlarga ochiq-sochiq holda ko'rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so'zlarni aytmaydilar, hamma bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'ladi. Bunday oilalarda nafaqat oilaviy munosabat, balki qon-qarindoshlik munosabatlari madaniyati ham yuksak darajada shakllangan bo'ladi. Bu munosabatlarda milliylikning asl o'zagi namoyon bo'ladi. Bu munosabatlarning afzalligi yana shundaki, bunda qarindosh-urug'lar bilan oqibatli bo'lib yashash, farzandlarni milliy udum, qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun imkoniyat tug'iladi hamda ular qarindoshlar orasida ham moddiy ham ma'naviy tayanch, suyanch bo'lib yashashga odatlanadilar. Bunday oilalarda tarbiyalangan farzandlar ham barcha bilan munosabatda tezda kirishib keta oladigan, munosabat madaniyatiga rioya etadigan inson bo'lib shakllanadilar, chunki bu bolalarni bitta oila emas, bir necha oila tarbiyalaydi. Bu esa oila mustahkamligini asoslash bilan birga uning mohiyatini ham belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyin o'tgan davr ichida ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda katta muvaffaqiyatlarga

erishiladi. Biroq, bu ishlar o'z-o'zidan amalga oshirilayotgani yo'q. Buning uchun eng to'g'ri yo'lni tanlay bilish, barcha sohadagi, shu jumladan, demografik jarayonlardagi o'ziga xos xususiyatlarni har tmomnlama asoslangan holda o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero, ilmiy asoslangan demografik siyosatning amalga oshirilishi aholi salomatligini tubdan yaxshilash, oilani ijtimoiy himoya qilish, respublika ichida mahalliy aholining migratsion harakatchanligini oshirish, mehnat resurslaridan unumli foydalanish, qishloqda ish bilan bandlikni ijtimoiy-demografik jihatlarini shakllantirishni taqazo etadi. Qolaversa, aholining ko'payib borishida oila asosiy o'rinni egallaydi. Demografik siyosatning asosiy maqsadi oilalarni mustahkamlash, ularning farovonligini oshirishdan ibrat bo'lmoqda. Qolaversa, bunday siyosat O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti xususiyatini, aholi sifat tarkibini yaxshilashni, sog'lom turmush tarzini vujudga keltirish va rag'botlantirishni nazarda tutadi.

1. Oilaviy munosabat madaniyatining takomillashuvi har bir jamiyatda mavjud oila tipi, iqtisodiy taraqqiyoti va o'ziga xosligi, xo'jalik tizimi, turmush tarzi, tabiiy o'sishi, turli demografik belgilarga bevosita bog'liq bo'ladi.

2. O'zbek oilalarining o'ziga xos xususiyati Sharqona odob-axloq qoidalariga amal qilishi, an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari madaniyatidan iboratdir.

3. O'zbek oilalarida serfarzandlik ulug'lanadi. Erta nikohdan o'tish odat bo'lib, nikohsiz yashash qoralanadi. Bu ham respublikamizda aholining tabiiy o'sishi yuqoriligiga sabab bo'lmoqda.

1.2. O'smirlilik yoshining ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatlari

O'smirlarni xali to'la katta deb xisoblab bo'lmaydi. Chunki ularning shaxsiy xususiyatlari xali bolalikni kuzatish mumkin. Bu ularning fikrlarida berayotgan baholarida, hayotga va o'z kelajaklari munosabatlarida ko'zga tashlanadi. Ko'pchilik o'smirlar maktabni tugatish vaqtiga kelib ham kasb tanlashga nisbatan ma'suliyatsiz yondoshadilar. Bu davr o'smirning axloqan o'z –o'zini anglashi

shuningdek, axloqning yangi bosqichiga o'tishi bilan harakterlanadi. Intelekti yaxshi rivojlangan o'smirlar kattalarni tashvishga solayotgan masala muammolarini tushina oladilar va ularni muhokama eta oladilar. o'smirlar juda ko'p muammoli savollarga javob o'ylaydilar. Ularning diqqatini ko'proq axloqiy masalalar tortadi. Agar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun axloqiy masalalarni yechish manbai – bu ular uchun o'qituvchilar bo'lsa, o'smirlar bu savollarga javobni ko'proq tengdoshlari davrasida qidiradilar. O'smir yoshdagilar esa savollarga to'g'ri javobni topishda ko'proq kattta kishilar foydalanadigan manbalarga murojaat etadilar. Bunday manbalar asosan real, ko'pqirrali, murakkab insoniy munosabatlar va ilmiy-ommabop badiiy, publitsistik adabiyotlar, sanoat asarlari, matbuot, radio, televidenie bo'lib xisoblanadi.

Bugungi o'smirlarga hayotga nisbatan xushyor, aqliy-amaliy qarash, erkinlik va mustaqillik xos. Ulart xaqqoniy bo'lish tushunchasiga ham real tarzda yondoshmoqdalar. Masalan o'rgan yillardek «xaqqoniylik bu hammaga bir xil emas, balki xar kimdan imkoniyatiga qarab va hammaga ishiga yoki inson manfaatalriga qo'shgan xissasiga qarab belgilanadi» deb tushunadilar va talqin etadilar. Maktabni tugallash vaqtiga kelib juda ko'p o'smirlar axloqiy jihatdan shakillangan va ma'lum axloq normalari qatoylashgan xususiyatlarga ega bo'ladilar. O'smirlarda axloqiy dunyoqarash bilan bir qatorda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, diniy va boshqa soxalar bo'yicha ma'lum bir qarashlar vujudga keladi. Juda ko'p yillardan beri o'smirlarni yaxshilik va yomonlik, xaqiqat va noqonuniylik, axloqiylik va axloqsizlik masalalari tashvishlantirib keladi. Hozirgi davr o'siprinlari xar bir narsaga ishonuvchan yoki salbiy munosabat xos bo'lmay, balki hayotga real, aqliy, amaliy qaraydigan, ko'proq erkin va mustaqil bo'lishga intiluvi yoshlaridir.

O'smirlar ongli ravishda egallangan axloq normalari asosida o'z xatti-harakatlarini yo'lga solishiga intiladilar. Bu esa, avvalo o'smiring o'zini anglashining o'sishida namoyon bo'ladi. O'zini anglash murakkab psixologik struktura bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi: Birinchidan bolada tashqi olamdagi predmet tasiridan paydo bo'lgan sezgilari o'z tanasi bilan farq qila boshlaganda

vujudga keladi. Ikkinchidan o'zining shaxsiy "Men"ligini aktiv faoliyati asosida anglashi. Uchinchidan o'zining psixik xususiyati va xislatlarini anglashi. To'rtinchidan ijtimoiy, axloqiy o'z-o'ziga baho berishning ma'lum sistemasini anglashi.

Mana shu elementlarni barchasi bir-biri bilan funksional va genetik bog'lagandir. Lekin ularni hammasi sizga ma'lumki, bir vaqtning o'zida shakllanmaydi. Bolaning «men»ligini anglashi taxminan 3 yoshda paydo bo'ladi, bunda bola shaxsiy olmoshni ishlata boshlaydi. Masalan: men, meniki, mendan va x.o. o'zining psixik sifatlarini anglash va o'z-o'ziga baho berish o'smirlilik yoshida, borgan sari ko'proq ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'smirlar xar joyda o'zini ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan vaqtidayoq, o'zlarining shaxsiy xususiyatlarini kuzata boshlaydilar. Ya'ni o'zlarining tashqi qiyofalariga tanqidiy qaray boshlaydilar: bo'yining pastligi yoki aksinchasi semizlik, xusn yuzdagi xusnbuzarlar yigit va qizlarni bezovtalantiradi, ular iztirob chekadilar. Kech yetiladigan ug'il va qizlar yashirin kechinmalar kechiradilar. Kishining o'z obrazi – bu o'pirinlikning o'zini anglashi ancha muxim komponent bo'lib xisoblanadi.

O'smirlilikda o'z shaxsiy xislatlariga baho berish kuchayadi. O'smir borgan sari o'z qimmatini, nimalarni qilishga arzishi va nimalarga qodir ekanligini benixoya bilgisi keladi. O'ziga baho berish 2 usulda bo'ladi. 1. Kishi o'zi qo'lga kiritgan yutuqlari natijasi bilan baholaydi. Masalan: Bola qiyin vaziyatda o'zini yukotmaydi yoki yosh bolani yongindan qutkazdi -"men qo'rqqoq emasman" deydi. Ma'lum qiyin topshiriqni bajardi. «Men qobiliyatliman»-deydi. Axloqqa oid bunday xatti –harakatlar, o'smirning o'z katoiyiligini sinashi hamdir.

2. Ijtimoiy taqqoslash, yaoni o'zi xaqidagi boshqa ishlarni fikrlarni solishtirishdan iboratdir. Masalan: o'quvchilar tomonidan "mardlik" deb maoqullangan xatti-harakatni o'qituvchi "qalbaki o'rtoqlik" deb aytadi. Bunda bolalar o'z xatti-harakatlari to'g'sida uylab, bosh qotira boshlaydilar. Shaxsiy "men" obrazi, juda murakkabdir. Xatto kattalarning o'zini anglashi qarama qarshiliklardan xoli emas. O'smirlarda yanada kuchliroq bo'ladi. Ba'zi o'smirlar

oʻzini kuzatish uchun kundalik daftarlar tutadi. Bu xolat qizlarda ertaroq va koʻproq uchraydi. Bu xolat shunchaki oʻsishni bildirib qolmasdan, balki shaxsda moxiyat jihatidan tubdan boshqacha tarzda oʻz shaxsiyatining maʼnaviy-ruxiy fazilatlarini, ijtimoiy turmush tarzi maqsad va vazifalarini anglash, ularni oqilona baholash zaruratini aks ettiradi. Undagi oʻz-oʻzini anglash turmush, yashash, oʻqish, mehnat va sport faoliyatlari taqozosi bilan namoyon boʻladi. Oʻquv muassasa mikromuxitidagi odatlanmagan vaziyat, shaxslararo munosabatlar va muamala koʻlamining kengayishi oʻziga xos tipologik aqliy, axloqiy, irodaviy, xissiy xususiyatlarini oqilona baholash, qoʻyilayotgan talablarga javob berish tariqasida yondashish oʻz-oʻzini anglashni jadallashtiradi.

Oʻsmir oʻquvchilarining oʻz-oʻzini anglashga aloqador oʻziga xos xususiyatlari mavjud ular, dastavval oʻzlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini aniqroq baholash imkoniyatiga ega boʻladilar. oʻsmir oʻquvchining oʻsmirlik davridagi boladan oʻzgacharoq yana bir xususiyati—bu murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissini anglash, oʻz qadr-qimmatini eozozlash, sezish va faxmlashga kuproq moyilligidir. oʻsmir oʻquvchida oʻz-oʻzini anglash negizida oʻz-oʻzini tarbiyalash istagi tugʻiladi. Natijada unda oʻz-oʻzini tarbiyalash vositalarini saralash, ularni kundalik turmushga tadbiq qilib koʻrish ehtiyoji vujudga keladi. Lekin oʻz-oʻzini tarbiyalash jarayoni oʻsmir oʻquvchisi ruxiyatidagi mavjud nuqsonlarga barham berish, ijobiy xislatlarni shakllantirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki voyaga yetgan kishilarga xos koʻp qirrali, umumlashgan idealga mos ravishda tarkib toptirishga yoʻnaltirilgan boʻladi. Oʻquvchilar oʻzida shaxsning eng qimmatli fazilatlarini, oʻquv va mehnat malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam ravishda egallab borishga, shaxsning muayyan bir fazilatlarini va xislatlarini xosil qilishga harakat qiladilar; oʻz-oʻzini tarbiyalash muammolarini, yaxlit maʼnaviy–ruxiy qiyofani shakllantirishga intiladilar.

Oʻsmirlarda balogʻatga yetganlik tuygʻusi takomillashib borib, oʻz-oʻzini qaror toptirish, oʻz maʼnaviy qiyofasini ifodalash tuygʻusiga oʻsib oʻtadi. Bu narsa ularning aloxida shaxs ekanligini tan olishga intilishida oʻz ifodasini topadi.

Buning uchun ayrim yoshlar turli modalarga mayl qo'yish, murakkab tasviriy sanoatga, musiqaga, kasb-xunarga, tabiatga maftunkor qiziqishlarini namoyish qilishga harakat qiladilar. O'quv va mehnat jamoalari tasirida matonat, jasurlik, sabr-toqat, kamtarlik, intizomlilik, xalollik kabi insoniy fazilatlar takomillashadi, xudbinlik, loqaydlik, munofiqlik, laganbardorlik, dangasalik, qo'rqqoqlik, g'ayirlik singari illatlarning barham topishi tezlashadi.

O'smir lar shaxsining shakllanishi jarayonida jamoat tashkilotlarini roli aloxida ahamiyat kasb etadi. Ularda faollik, tashabuskorlik, mustaqillik, qat'iyatlik, masouliyatlik, o'z harakatlarini tanqidiy baholash singari fazilatlar barqaror xususiyat kasb etib boradi. O'smir yigit va qizlarning jamoatchilikda faol ishtirok etishi orqali muayyan tashkilotchilik qobiliyati namoyon buladi. O'zining kimligi, qandayligi, qobiliyatlari, o'zini nimaga hurmat qilishini aniqlashga intiladirlar. Do'st va dushmanlari kimligi, o'z istaklari, o'zini va tevarak-atrofni, olamni yaxshi bilishi uchun nima qilish kerakligini anglashga harakat qiladi. Ma'lumki o'smirlarning hamma savollari anglangan bo'lmaydi. Ba'zan o'smirlar o'zlaridan xech qanoatlanmaydigan, o'z oldilariga xaddan tashqari ko'p vazifalar qo'yadigan, lekin uning uddasidan chiqa olmaydigan bo'ladi. Mana bulardan ko'rinib turibdiki, o'smirlar o'z-o'zini analiz qilish teranligi va yuksak talablarni bajarish kerakligini o'zida aks ettira boradi. Bu esa o'smirlarning kelgusi yutuqlari shartlaridan biridir.

O'z-o'zini hurmatlash va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat. Demak, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, shaxsning erta o'smirlikdagi eng muxim xislatlaridan biri o'z-o'zini hurmatlash, o'z-o'ziga baho berish hamda o'zini shaxs deb tan olish yoki olmaslik darajasidir. O'smirlar o'zlarida shaxsning muayyan kompleks sifatlarini xosil qilishga intiladilar. O'z-o'zini tarbiyalash masalalarida bir butun ma'naviy psixologik qiyofani shakllantirish masalasi qiziqtiradi. Bunda shaxs ideali va namunaning mavjudligi katta ahamiyatga ega. Masalan: O'g'il bolalar qahramonlik, yaxshi ota, o'qituvchi, vrach yoki badiiy asar hamda kinofilpmdagi obrazlarni o'zlariga ideal deb bilsalar, qizlarimiz mehnatkash ayol, jozibali jamoat arbobi, nazokatli uy bekasi yoki ilmiy xodim va x.o. O'zaro

munosabat va emotsional hayot o'z mavqeini belgilashning murakkab muammolarini o'smirning o'zi xal qila olmaydi. Bu masalani o'smir ning ota-onasi, o'z tengqurlari, o'qituvchilar ishtirokida ularning qo'llab-quvvatlashda xal qila oladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida shu narsa ko'zga tashlandi. Ko'pchilik o'smirlar bo'sh vaqtlarni birona joyda o'tqazishni afzal ko'radilar. Ayniqsa shaxar bolalari bo'sh vaqtlarini maktab va uydan tashqari joylarda o'tkazishni afzal ko'radilar. Qishloq bolalari bo'sh vaqtlarini madaniy dam olishga qaratadi. Ammo shaxar bolalari bo'sh vaqtlarini ko'proq kattalar bilan emas, balki o'z tengqurlari bilan o'tkazishni afzal ko'radilar. Masalan: ayrim o'smirlar ota-onalari salgina ehtiyojsizlik qiladimi xafa bo'lib, qovog'ini osadilar, yuz o'girib o'tiradilar, gap qaytaradilar. Natijada ota-ona o'rtasiga sovuqchilik tushadi.

1.3. Jamoatchilik nazoratida mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning tutgan o'rni

Jamoatchilik fikri jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotining tarkibiy jihatlaridan hisoblanib, shaxs va jamiyat, jamiyat va ijtimoiy-siyosiy voqealar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ifodalovchi qudratli vositadir. Jamoatchilik fikrining uyg'onishi, muayyan shakl-shamoyil hosil etishi jamiyatning bazisi va ustqurmalariga ko'p jihatdan bog'liqdir. Jamoatchilik fikri jamiyatning qudratli mafkuraviy qurol hamdir. U jamiyatning harakatlanuvchi kuchi sifatida hamma davr va makonda saltanatlar va hoqonliklar, xonliklar va amirliklar siyosatining muhim jabxasi sifatida ahamiyatli bo'lgan.

Ijtimoiy hodisa sifatida jamoatchilik fikri yaxlitligini ta'minlashda uning tarkibiy qismlari uchun tizim yasovchi belgilarning o'rni va ahamiyatini to'g'ri aniqlash ham juda muhimdir. Tadqiq etilayotgan masalaning tizim yasovchi belgilari quyidagilardan iborat ekanligiga nazariy tadqiq va empirik tahlil natijasida ishonch hosil etdik:

a) jamoatchilik fikri yo'naltirilgan .ijtimoiy-siyosiy yoki iqtisodiy hodisaning alohida siyosiy fakt sifatidagi ahamiyat ko'lam;

b) jamoatchilik fikrini ifodalovchi ijtimoiy sinf, guruh, tabaqa yoki qatlam ma'naviy-intellektual va ayniqsa axloqiy darajasi;

v) jamoatchilik fikri generatorlari - ijtimoiy harakat liderlarining ma'naviy axloqiy nuqtai nazarlari;

g) ijtimoiy fikrni amalga oshirishga yo'naltirilgan potensial va real aholi soni nisbati;

d) qo'yilgan maqsad va harakat vaqti mutanosibligi;

ye) tizim yasovchi belgilar o'rtasidagi o'zaro mantiqiy bog'liqlik darajasi;

j) ijtimoiy harakatni belgilovchi kishilarning milliy, tabaqaviy, mahalliy strukturasini;

z) harakatning mazmuniy tarkibidagi bosh g'oya va parallel manfaatlar munosabati, ulardagi uyg'unlik darajasi.

Tizim yasovchi belgilarning u yoki bu qirrasini kuchanishi yoki susayishi umumiy harakat mazmunida tegishli ta'sir izini qoldirishi shubhasizdir. Eramizning 33-yilida, o'zaro nisbatan teng ikki jamoatchilik fikri - xristianlik va ko'p xudolikka moyil aholidan birinchi harakat vaqti omilidan ustalik bilan foydalanishi natijasida Iso Masix yog'ochga mixlanganligi, haddan tashqari xalqchil bo'lib, aristokrat qatlamidan uzoqlashgan va o'zini payg'ambar hisoblashlarini talab etgan Yuliy Sezarning senatda shakllangan jamoatchilik fikri oqibatida Brut va uning safdoshlari tomonidan pichoqlab o'ldirilishi, Umar ibn Xattobning islom dunyosining pahlavon rahnamosi, musulmonlar sevgan xalifa bo'lishiga qaramay, oddiy qul tomonidan xiyonatkorona o'ldirilishi singari misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Shuningdek, jamoatchilik fikrini Somoniylar, Temuriylar sulolasi davrlarida tutgan ijtimoiy mavqei tahlil etilib, ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Mazkur mavzu O'zbekistonda ilgari yetarli darajada o'rganilmagan. Mavzuni sotsiologik jihatdan kompleks o'rganish, jamoatchilik fikrining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi rolini ko'rsatib berish, jamoatchilik fikrining shakllanish manbalari va amal qilish sohalarini aniqlash, ana shu yo'nalishlarda muammoning ilmiy asoslangan konsepsiyasini ishlab chiqish masalasining dolzarb jihatlaridan

hisoblanadi. Ayniqsa, muammoning sharqda xususan mamlakatimiz xalqlari tarixida jamoatchilik fikrining juda katta ahamiyati va rolini ochib berish, demokratik jarayonlarning G'arbdagi individualizm o'rniga O'zbekistonda jamoaviy manfaatlar asosida amal qilish tamoyillarini asoslashda namoyon bo'ladi. Mavzu orqali jamoatchilik fikrining o'zbek xalqi mentaliteti, ma'naviyati va turmush tarzi o'ziga xosligi negizida namoyon bo'lishi misollar asosida yoritib beriladi.

Xulosada quyidagilar qayd etiladi:

1. Jamoatchilik fikri Turon va Movorounnahr xalqlari ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etgandir.

2. Jamoatchilik fikri mohiyat e'tiboriga va pirovard maqsadlariga ko'ra jamiyat a'zolarini shaxsiy va jamoaviy takomilga, o'zaro ahillik, mehr-muhabbatga asoslanuvchi yakdillikka olib borish omili vazifasini o'tab kelgandir.

3. Jamoatchilik fikri jamiyatning taraqqiyot mezonini va maromiy amal qilish muvozanati hamda barqarorlikning asosiy omili vazifasini o'tab kelgandir.

4. Jamiyat va davlat tuzumi mohiyatan o'zgargan davrlarda qonun ustivorligini o'rnatish, jamiyatda huquq va tartibotni mustahkamlash zarurligini omma ongiga singdirish alohida ta'kidlanadi. Bu davrni o'tish davri, qonuvchilikni mustahkamlash va barqarorlashtirish davri deyish mumkindir.

Jamoatchilik fikri – keng jamoatchilikning, ommaning aholi ko'pchilik katlamining voqea-xodisalarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi fikrlari, g'oya, karash va tasavvurlari. Jamoatchilik fikri ijtimoiy hayot ta'sirida stixiyali shakllanib borishi yoki siyosiy tashkilotlar va mafkuraviy muassasalarning omma ongiga ta'sir ko'rsatishi natijasida maqsadga muvofiq o'zgarib borishi mumkin.

U jamoa ongining o'ziga xos umumlashgan ifodasi sifatida, alohida fikrlarning o'zaro almashuvi, boyishi va uyg'unlashib borishi natijasida yuzaga keladi. Jamoatchilik fikri aqliy, xissiy va irodaviy jihatlarni uzviy birlikda ifodalaydi va turli tarzda namoyon bo'ladi. Birinchidan, voqealarga ma'naviy munosabat sifatida. bunda voqealarni baholovchi fikrlar keng jamoatchilik

tomonidan biror-bir tarzda e'tirof etiladi. Ikkinchidan, g'oyaviy-amaliy munosabat sifatida. Unda xissiy va irodaviy istaklar, intilish va niyatlar ommalashadi, jamoatchilikni amaliy faoliyatga undaydi. uchinchidan, amaliy munosabat sifatida. bunda kishilar voqea va jarayonlarga bo'lgan munosabatlarini o'zlarining ommaviy harakatlari bilan namoyon etadi. jamoatchilik fikrinining ko'pchilikka tayanishi uning ta'sir kuchini belgilab beradi.

Ma'lum voqealar haqidagi axborot va munosabatlarni tez va keng tarkalishi hamda oshkor qilinishida ommaviy axborot vositaldari (OAV)ning o'рни beqiyosdir. OAVning to'rtinchi xokimiyat darajasiga ko'tarilishi ham ular tarqatadigan xabar va yangiliklarning jamoatchilik fikrini shakllantirish va o'zgartirishga ta'siri bilan belgilanadi.

Ijtimoiy jarayonlarga munosabatning turlicha bo'linishi uni ifodalovchi fikrlar rang - barangligiga olib keladi. muayyan haqiqatni turlicha izohlash va talqin etishga asoslanuvchi plyuralizmning mavjudligi jamiyatda jamoatchilik fikrlari rang-barangligini belgilab beradi. Bunda ma'lum ijtimoiy guruh orasida keng tarqalgan va muayyan ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar boshqa guruh uchun e'tiborga ega bo'lmazligi ham mumkin.

Shuning uchun ham, taraqqiyotning o'zbek modelini, bu yo'ldagi amaliy islohotlarni qo'llab-quvvatlash hamda unda faol eshtirok etish borasidagi munosabatlarni ifodalovchi, jamiyat a'zolarining barcha tabaqa va qatlamlarini birlashtiruvchi jamoatchilik fikrini shakllantirish va muttasil saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keng xalq ommasining ijobiy munosabatini maqsadga muvofiq shakllantirish, doimiy o'rganish va hisobga olish taraqqiyotni ta'minlashda to'g'ri yo'ldan adashmaslik va oqilona qadam qo'yishga tobora kuchli omilga aylanib bormoqda.

Nodavlat tashkilotlari milliy huquqlarga bo'ysunishi, ijtimoiy va ma'naviy an'analar, jamiyat madaniyatiga muvofiq kelishi lozim.

O'zbekistondagi nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlarini hali shakllanayotgan fuqarolik ko'rinishlari sifatida ko'rib chiqish kerak.

Bu Xotin-qizlar tashabbuskorligi yoki yuridik shaxslar tomonidan tuzilgan

erkin, o'zini-o'zi boshqaruvchi shakllar xilma-xilligi bilan farqlanadilar.

Birinchidan, nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlari keng demokratik prinsiplar negizida harakatlanadilar, xech qanday siyosiy, etnik va konfedsional ramkalar bilan chegaralanmaydilar;

Ikkinchidan, nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlari siyosiy va boshqa xokimiyatlarga erishish uchun mexanizm rolini o'ynay olmaydi;

Uchinchidan, nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlari moddiy boylik yig'ish maqsadini ko'zlamaydilar.

Xotin-qizlarni jamoatchilik tomonidan saylanishi ularning a'zolari va siyosiy partiyalar, shuningdek, muqobil tarzda nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlari faoliyatida ham tan olinishi mumkin. O'zbekiston Adliya vazirligi 50 dan ortiq birlashmalarni ro'yxatga olgan bo'lib, ular o'z Nizomlarini nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlariniki deb belgilaganlar.

Nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlari toifasiga umumqabul qilingan quyidagi tashkilotlar kiradi: ular bir-biridan o'ta farqlanib, turlicha vazifa va burchlarga, ommaviy qatnashchilarga va moddiy-texnik imkoniyatlarga egadirlar.

Nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlari O'zbekistonda uchta guruhlar bo'yicha sinflanadi.

Birinchi guruh: Xotin-qizlar ijtimoiy manfaatlariga xizmat Kiluvchi umuminsoniy tuzilmalar sirasiga O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar Qo'mitasi kiradi. Qo'mita barcha darajadagi davlat tuzilmalari bilan joylardagi davlat raxbarligi tizimida o'zaro ish olib boradi.

Ikkinchi guruh: ekologiya va salomatlik bo'yicha maxsuslashtirilgan milliy xalqaro jamg'armalar bo'lib, ular joylardagi ijtimoiy ahamiyat va ijodiy manfaatlar bilan hamkorlik qilish maqsadida tuzilgan. Masalan, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi, O'zbekiston yurist ayollarining jamoatchilik birlashmasi.

To'rtinchi guruh: jamoatchilik tashkilotlari, ular ichida eng mashxurlari Tadbirkor Ayollar Assotsiatsiya, «Sharq ayoli» xalqaro Xotin-qizlar jamg'armasi, «Oila va bolalar» nodavlat notijorat tashkilotlari hisoblanadi.

O'zbekistonda Xotin-qizlar tashkilotlari toifasiga vazifa va funksiyalar, ommaviy qatnashchilari va moddiy-texnik imkoniyatlari bilan bir-biridan tubdan farq qiladigan quyidagi tashkilotlarni kiritish mumkin:

1. Ijtimoiy, ijodiy, shaxsiy manfaatlarni birlashtiradigan jamoatchilik birlashmalar.
2. Ma'lum ijtimoiy yo'nalishlar va loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun vositalarini yo'naltiradigan jamg'armalar.
3. Jamoatchilik muassasalari-jamoatchilik fikri tahlil; ijtimoiy jarayonlar, nodavlat va notijorat ijtimoiy xizmat ko'rsatish infratuzilmalari.

Nodavlat Xotin-qizlar tashkilotlarining ikkinchi va uchinchi turlari xorij tajribasida nafaqat bitta nodavlat tashkilot tomonidan, balki bitta aloxida shaxs tomonidan ham tuzilishi mumkin. Shunday qilib, uchinchi sektor-reallik va u O'zbekistonda faollik bilan rivojlanmoqda. U jamiyat hayotini keng qamrab oladi, davlat tuzilmalari, tijoratdan holi ularga daxl qilmay, fuqarolar tashabbuskorligi doirasida mustaqil muhitni shakllantiradi, uni adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratadi. «Fuqarolik jamiyati» termini ham keng, ham tor ma'noda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi fuqarolik jamiyati o'z ichiga bevosita davlat tomonidan qamrab olinmagan barcha narsalar va jamiyat qismidagi tuzilmalar, xullas, «davlat Ko'li tegmagan» barcha narsalarni oladi. Tor ma'nodagi fuqarolik jamiyati ma'lum ma'noda uzviy ravishda huquqiy davlat bilan bog'liq, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydilar. Fuqarolik jamiyati bevosita davlat bilan erkin va teng huquqli individlarning bozor sharoitlari va demokratik huquqiy davlat tuzilmadagi o'zaro aloqalarini ta'minlaydi.

Jamoat birlashmalari. O'zbekiston Respublikasida Qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, Xotin-qizlar, fahriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va havfsizligi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy,

irqiy va diniy adovatga qarshi, ijobiy insonparvar g'oyalarni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarining, milliy va diniy ruxdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va ximoya qiladilar. Kasaba tashkilotlariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir.

2 BOB. MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA AN'ANALARNING O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILAR TARBIYASIGA TA'SIRIDAGI USTUVOR JIHATLAR

2.1. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallaning tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab ta'lim tizimi islohoti bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar izchillik bilan ro'yobga chiqarilmokda, ta'lim tarbiya jarayoni ishtirokchilarining moddiy va ma'naviy turmush sharoitini yaxshilashga yo'naltirilgan chora tadbirlar amalga oshirilmokda.

Prezidentimiz Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» nomli asarlaridagi umuminsoniy qadriyatlarni tiklash haqidagi mulohazalarida ta'lim tarbiya jarayonlarida o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqlol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishishga undab, shu jumladan, kelajak avlodni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning roli benihoyat katta ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Shuning uchun, avvalo oilada ayol-ona farzandlar tarbiyasida yetakchi o'rin egallaydi. Asosan, ona o'g'il-qizlarni to'g'ri tarbiyalashda yuz foiz javobgar shaxs hisoblanadi. Chunki ona farzandlarini kechayu kunduz, har daqiqayu soniya qaysi faoliyat bilan band ekanligini kuzatib, nazorat qilib yurishi lozim.

Avvalo, ona o'g'il-qizlarining bolaligidan ko'ngliga yo'l topa olishga harakat qilishi kerak. Qizbolani tarbiyalashda onalar ularning ichki hissiyot dunyosiga e'tibor berib hamisha hamdard bo'lishga intilishsin. Qizlar nozik va murakkab tabiatlari tufayli juda ko'p qiyinchiliklarga uchraydilar, shunda, ularga o'z vaqtida yordam qo'lingizni cho'zmasangiz keyinchalik kech bo'lishi mumkin.

Qizlarni oilada jinsiy xususiyatiga ko'prok e'tibor berib tarbiyalash eng muhim muammo hisoblanadi. Qizchalar ko'pincha qo'g'irchoq bilan o'ynashni yoqtiradilar, onalariga taqlid qilib, qo'g'irchoqni «ovqatlantiradilar, uxlatadilar...»,

demak, tabiiy ravishda onalik instinkti rivojlanadi. Maktabga borganda ham o'z sinfdoshariga mehribonlik qilish, sho'x o'g'il bolalarni toza-ozoda yurishini talab qiladilar.

Ammo, maktabda, o'g'il-qizlarni boshlang'ich sinfdan boshlab aziz pedagoglarimiz, kelajak oilaviy hayotga ham tayyorlash kerak deb qayg'uradilarmi?

Biz, bilamizki hozir barcha maktablarda DTS asosida «Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi» fani o'rganiliyapti va darslik mualliflari professor G.Shoumarov boshchiligida barcha muammolarni inobatga olib, mazkur darslik zamon talabiga javob beradigan darajada yaratilgan. Lekin, maktablarda, shu fanni o'qitadigan o'qituvchi-muallimlar darslik mazmun mohiyatini o'quvchi ongiga yetarli darajada yetkazib bera oladilarmi?

Maktabda, boshqa fanlarni ta'lim berish jarayonida, hamda sinf rahbarining sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar mazmun mohiyatida, qaysi darajada mazkur muammoga e'tibor beriliyaptimi? Qizlarni, individual xususiyatlari inobatga olinib va milliy tarbiya mezonlariga asoslab, ishlar olib borish yulga qo'yilganmi?

Oxirgi vaqtlarda dars jarayonida ko'proq ta'lim mazmunini to'laqonlik bilan o'zlashtirishga, olingan bilim, malaka, mahoratni hayotda tadbiriq etishga, juda ko'p e'tibor berilayapti.

Qizlarni yaxshi va a'lo baholar bilan o'qishiga odat tariqasida qaraymizu, lekin ularni individual xususiyatiga-qizbola ekanligini unutamiz. Bugun, nozikgina, latofatli qizcha, ertaga tanib bo'lmaydigan darajada ovrupocha kiyingan, qo'lida sigareta, ko'zlarida alam, beparvolik, joyi kelganda mushtlashga ham tayyor. Qizlarga xos bo'lgan latofatu nazokat qani?

Qizlarni 16-17 yoshga yetmasdan turmushga berish biz onalarga odat bo'lib qoldi. Onalar qizimiz tezroq kelinlik libosini kiysin, «mahallada duv-duv gap qilib» to'ylar o'tkazaylik deb ko'p qiziqadilaru, ammo, to'ydan keyingi oilaviy hayotga tayyor bo'lmagan qizchani boshini ne azobu mashaqqatlaru ich-ichidan ezilib, yuragi qon bo'lishini o'ylamaydilar.

Ko‘pincha, oliy o‘quv yurtini bitirgan, ko‘p badiiy va adabiy kitoblarni o‘qigan, bir qancha xunarlarni moxir ustasi bo‘lgan, oshpazlik sirlarini egallagan qizlar ham yangi oila qurgan davrda, oddiy muomala madaniyatiga e‘tibor bermaganliklari uchun, oila a‘zolari bilan til topisholmay ko‘p qiynalib yurishlari ham bo‘lgan.

Oilaviy hayot, juda murakkab sinov maktabi hisoblanadi va onalarimiz o‘g‘il-qizlarini ana shu hayot sinovidan o‘tishga tayyorlashlari lozim. Chunki farzandlarni kelajak hayotda o‘z o‘rnini topib, jamoada, ko‘pchilik bilan muomila madaniyatiga asoslab, ishlab, o‘nib-o‘sishi uchun, ularni avvalo, oilaviy hayotga tayyorlash kerak: «qush uyasida ko‘rganini qiladi» deyishadi.

Qizlar, hamisha onalari bilan sirdosh bo‘lishlari lozim, chunki, asosan uyg‘onish davrida, ko‘p muammoli savollar paydo bo‘ladi. Shunda, qizbola onasi bilan sirdosh bo‘lmasa, u dardini kimga aytadi, kim bilan maslahatlashadi, onasidan uyalsa, otasidan qo‘rqsa, albatta dugonasi yoki biror do‘sti bilan dardlashadi. Dugonasi, aqlu zakovati, farosati, axloqu odobiga ko‘ra u yo yaxshi yo noto‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, maslahat berishi mumkin.

Oxirgi vaqtlarda, jamiyatimizda ba‘zi xotin-qizlar halol va mashaqqatli mehnat qilishdan qochib, har xil yo‘llarga kirib borishiyapti. Shu kabi dugonalar, yosh qizlarga qanday ibratli yo‘l ko‘rsatishi mumkin?

Yosh qizlarni tarbiyalashda, avvalo, ularni irodasi kuchli bo‘lishiga jiddiy e‘tibor berishimiz lozim. Chunki, qizlar ko‘pincha sodda, hamma narsaga ishonadigan bo‘lib, juda tez hissiyotga berilib ketadilar.

Ba‘zan, qizbola, hissiyotni aqldan ustin qo‘ysa, tez hissiyotga berilsa, u hayotida hech qachon qaytarib bo‘lmaydigan xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shuning uchun, qizlar hamisha aqlni hissiyotdan ustun qo‘yishsa, hissiyotga berilmasa, har bir muammoli his tuyg‘ularini onai mehribonlari bilan birga maslahatlashib yursalar, xatolarga yo‘l qo‘yilmaydi. Va avvalo, aziz onajonarimiz, o‘zlari tarbiyalangan, hayotning murakkab, lekin nozik sir asrorlarini tushunadigan, ma‘rifatli, ma‘naviyatli va oilada muomila madaniyati san‘atiga ega bo‘lsalar, o‘z qizlariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, maslahatlar berishlari mumkin. Aks

holda, qizlar hissiyotga berilib, yigitlarni va'dasiga ishonib, noto'g'ri yo'llarga kirib boradilar. Oxiri, irodasizlikdan, qiyinchiliklarga chidolmay yoki sharmanda bo'lishdan qo'rqib, o'z jonlariga so'iqasd qiladilar yoki «fohisha» bo'lishga rozi bo'ladilar.

Tibbiyot xodimlarini ham fikriga qaraganda, jinsiy hissiyotini yo'qotganlar jamoada hech kim bilan kelisholmay, o'z o'rnini topolmaydi. Ruhiyati buziladi, odamlar bilan muomila qilishga eziladi, kayfiyati o'zgaradi, yaqinlari, qarindosh urug'lari, yashash joyi, sevgan kasbi ko'ziga yomon ko'rinadi, umuman kelajak hayotga qiziqishi yuqoladi. Natijada, jamiyatga qarshi fikr yuritadi, umidsizliklar bilan, izzagaruvchan hissiyotga berilib, jaholatli bo'ladi.

Shuning uchun, aziz onajonlarimiz, oilangizda bor imkoniyatlardan unumli foydalanib, boshqalarga taqlid qilmasdan, orzu havas qilaman deb, begona yurtlarda sarsonu sargardon bo'lib yurmasalaru farzandarini doimo qoshida bo'lib, ularni tarbiyasiga jiddiy e'tibor bersalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2.2. O'smir yoshdagi o'quvchilar tarbiyasida oila bilan mahalla jamoasining o'zaro muloqoti masalalari

Oila o'zining tarixiy taraqqiyoti davrida uzoq va murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lning o'ziga xos xususiyatlaridan biri jamiyatning o'zaro aloqalari va ijtimoiy vazifalarining tubdan o'zgarganligidir.

Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy tuzilishining o'zgarishi oilaning shakllanishiga, uning o'zaro aloqa shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, jamiyatning moddiy texnika va ma'naviy yo'nalishidagi o'zgarishlari oila faoliyatining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar oila qurish, mehr-muhabbat, o'zaro do'stlik va farzand ko'rishni rejalashtirishda o'z ifodasini topmoqda.

Davlatimiz oilalarni o'zining olib boradigan siyosati markazida olib qaraydi. Shu sababli imkoniyat doirasida moddiy va ma'naviy yordam berishga majbur. Oilaviy tarbiyani maktab, jamoatchilik bilan uyg'unligini ta'minlashdan

manfaatdordir.

Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri insonlar avlodini ko'paytirishdir. Bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasida oila ma'lum darajada ijtimoiy tashkilotlar bilan jamiyat taraqqietiga hamohang holda faoliyatda bo'lmoqda. Oilaviy tarbiya muammolarini tadqiq etish, asosan ikki yo'nalishda olib borilmoqda. Bir tomonda oilaviy tarbiya pedagogikaning an'anaviy qismi sifatida o'rganilmoqda. Ikkinchi tomondan esa oila sotsiologiya va filologiya yo'nalishida ham tadqiq etilmoqda. Matbuotda e'lon qilingan maqolalarda mazkur sohaga qiziqqan olimlarning oilaviy tarbiya xususiyatlariga ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yondashayotganliklari ma'lum bo'lmoqda.

Bolalarning bolalar yasli va bog'chasida uzoq muddat bo'lishlari ularning kamolotiga, ehtiej, qiziqish va muomala harakteriga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Baxtga qarshi hozirgi vaqtda ota-onalarning ishlab chiqarishda ko'plab mashg'ul bo'lishlari sababli o'zlarining to'laqonli tarbiyaviy vazifalarini bajara olmasliklarini tasdiqlamoqda.

Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina o'sib kelaetgan yesh avlod farovonligini ta'minlash mumkin. U yoki bunisining yo'qligi tarbiyaviy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamizda ayni hozirgi kunda oilalarning ijtimoiy ahamiyati ortib bormoqda. Oilalarning moddiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish asosida bolalar tarbiyasi uchun javobgarlikni kuchaytirish jarayoni tezlashmoqda. Biz uchun oila mustahkamligini ta'minlovchi axloqiy ruhiy aloqalar juda muhimdir. Xuddi ana shu aloqadorlik oilaviy munosabatlar, to'laqonli hissiy-emotsional, otalik yoki onalik, oilaviy baxtni ta'minlash ehtiyojlarini qondiradi.

Ota-onalarga pedagogik bilim berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajriba almashishi, ota va onalarni tarbiya ishlariga qizg'in jalb qilish uchun ularni maktabga, mahalla qo'mitalariga taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarning bu boradagi eng muhim vazifalari bolalari kamolotini oldindan tasavvur eta olishlari, tarbiya maqsadini aniqlashlaridir.

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish faoliyatni mohirlik bilan tashkil etishga

bog'liq. Buning uchun:

a) Bolalarning hayoti va mashg'ulotini to'g'ri tashkil etish (rejim, o'yin, mehnat, uydagi o'quv ishlari, sport va shunga o'xshash)

b) O'zining shaxsiy faoliyati va dam olishini tashkil etish (ishda, uy-xo'jaligida, bolalarni parvarishlashda, o'qishda, dam olishda, yesh avlod tarbiyasi yuzasidan jamoat ishlarida va hokazo).

Biroq, bu yo'lda bir qancha qiyinchiliklar mavjud. Birinchi qiyinchilik shundan iboratki, ilg'or oilalar ham tarbiyaning maqsadini va o'z mas'uliyatlarini yaxshi bilsalar ham tarbiya uslublari, usul va vositalarini aniq qo'llay olmaydilar. Ma'lumki, oilada biron-bir uslub alohida qo'llanilmaydi, balki barcha uslublar uyg'unlashuvda qo'llaniladi. Bizning hozirgi sharoitimizda ko'proq ishontirish va unga hamohang uslublar ko'proq tatbiq etiladi (masalan, ma'qullash, rag'batlashtirish). Majbur etish esa boshqalarga nisbatan yerdamchi usul sifatida qo'llaniladi.

Demak, tarbiya usullari va uslublarini tanlash, ularni takomillashtirish va tatbiq etish oila hayotining muhim formasidir. Yesh avlod tarbiyasining muvaffaqiyati biron-bir alohida olingan usullarga emas, balki o'ylab va yaxshi tashkil etilgan uslublar tizimiga bog'liqdir. Oilada qo'llanilgan u yoki bu usullar haqida gap ketganda, shuni esda saqlash lozimki, agar oilaning hayot tarzi, turmushi va axloqiga monand usullar tanlansa, tarbiyaviy samaradorlik oshishi yoki mos kelmasa, aksincha bo'lishi hayotda ko'plab kuzatilgan.

Oilada bolalarni tarbiyalash o'zining bir qancha milliy xususiyatlariga ega. Ular xalqning shakllangan oilaviy an'analari, urf-odatlarini, xalqning ruhiyati, hayoti va turmush tarzidir.

Respublikamiz bolalarga ko'rsatadigan amaliy ta'sirini oila orqali amalga oshiradi. Oilaning bolalariga ko'rsatadigan ta'sir doirasi shunchalik kattaki, u jamiyat ta'siri bilan uyg'unlashib ketadi. Shu bilan birga, biz uning o'ziga xos imkoniyatlari mavjudligini inkor eta olmaymiz.

Barkamol inson tarbiyasida oila jamiyat bilan yaxlit bir birlikni tashkil etadi, bu esa hozirgi kunimiz uchun xos xususiyatlardan biridir. Ayniqsa, ota-onalar va

jamiyat a'zolarining mehnat faoliyatlari harakteri, er va aelning teng huquqligi, o'zaro hurmat, farzandlarni e'zozlash, hurmatlash, ijtimoiy va fuqarolik e'tiqodi, oilaviy madaniy hayotning mavjudligi va o'saetganligi oilalarga xos fazilat sifatida qadrlanmoqda.

Bolalar tarbiyasiga birinchi gavbatda ota va onaning o'zaro munosabatlari katta ta'sir ko'rsatadi. Bizning jamiyatimizda er va aellarning teng huquqligi ta'minlangan bo'lsa-da, lyokin biologik tenglik yo'qligini inkor eta olmaymiz. Shu sababli onalar bolalari tarbiyasi uchun ko'proq mehnat qilishlarini taqozo etadi. Bundan tashqari, aellar oilada erkaklarga nisbatan ko'proq vaqtini uy ishlariga sarflaydi. Sotsiologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, hatto dam olish kunlari ham ayollar uy ishlari uchun to'qqiz soatdan o'n bir soatgacha vaqt ajratishadi. Ishlovchi ayol bolalar tarbiyasi uchun juda oz vaqt ajratishga majbur bo'ladi. Ertalab, ishga jo'nashdan oldin bolalarini avqatlantiradi, kiyintiradi, yasli yoki bog'chaga olib boradi, maktabga jo'natadi. Katta yeshdagi farzandlari o'zlarini eplaydi. Kunning ikkinchi yarmida ishdan qaytgach, aelning ikkinchi - uy uchun bo'lgan ish faoliyati boshlanadi, ya'ni bolalarining uy vazifalarini bajarishlarini nazorat qilish, kechki ovqat tayyorlash va hokazo.

Otaning uy ishlaridagi ishtiroki asosan buyruq berishda ko'proq namoen bo'ladi. «Uni bajar, nima uchun buni bajarmading, hozir bajar» va hokazo. Uning vazifasi ko'proq oilaning iqtisodietini va farzandlarining sog'-salomat o'sishlarini ta'minlashda ifodalanadi. Chunki farzandlarining bemorligi nafaqat onaning, balki otaning ham ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli farzandlari sog'ligining yaxshi bo'lishini ta'minlash har ikkisi uchun birday mas'uliyatni yuklaydi.

Oilalar tarbiya usullarini qo'llash borasida bir-birlari tajribalaridan foydalanadilar. Shu nuqtai nazardan oilalarni shartli ravishda ikkiga bo'lish mumkin, ya'ni «qattiqqo'l», va «yumshoq» intizomli oilalar. Birinchi guruhga kiruvchi oilalar o'z faoliyatlarida talabga asoslangan uslublarga, hatto, tan jazosi berish orqali tarbiyalashga asoslanadilar. Ikkinchi guruhga kiruvchi oilalar esa o'z faoliyatlari namunasida, ishontirish, yumshoq intizom shirin, to'g'ri muomala orqali tarbiyalashga asoslanadilar. Agar «qattiqqo'llik» intizomli oilaning ichki

munosabatlarida hukmronlik qilsa, «yumshoq» intizomlilarida esa demokratiya, tenglik munosabatlari mavjuddir. Biroq «yumshoq» oilalardagi bunday munosabatlar ota-onalarning o'z xulqlari bo'yicha mas'uliyatlarini kamaytirmaydi. Bunday intizomli oilalar uchun bolalarni qo'rqitish, cho'chitish usullari yet bo'lib, bolaning qadrini bilish, o'z-o'zini hurmat qilish xislatlarini tarbiyalash asosiy hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tarbiyalashda jazo, qo'rqitish usullaridan foydalangan oilalardagi bolalar voyaga yetgach, ruhiy asab faoliyatida buzilishlar sodir bo'lgan. Munosabatda qo'rqoqlik, aqliy faoliyatda orqada qolish holatlari kuzatilgan.

Oilaviy kelishmovchiliklar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan munosabatlar, ayrim ota-onalarning madaniyat va ma'lumotining nisbatan past saviyada ekanligi mavjud tarbiyaga oid bilimlarni o'zlashtirishga xalaqit beradi. Beqaror kayfiyat, hayotiy o'zgarishlar oilaviy muhitda qarama-qarshilikni vujudga keltiradi. Ota-onalarning aniq bir-birini tushunmasliklari va o'zaro kelishmovchiliklari, yoki bolaning yonini olishlari uning xulqida egoizm ko'rinishidagi holatni zohir etadi. Otalar bunday holatlarda jazolashga moyillik, onalar esa muloyimlik, «ba'zan» betaraflik holatlarida bo'lishadi.

Oilalarni har tomonlama o'rganish, ularning faoliyatlarini qiesiy tahlil etish va baholash maqsadida ko'plab oilalarda tabiiy kuzatishlar olib borildi, oilaviy marosimlarda ishtirok etildi.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

A) Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish omillaridan biri bola shaxsini kamolotga yetkazish uchun uni har tomonlama o'rganish, shuningdek, oilaviy tarbiya usullari va shakllariga ijodiy yendashish, uni takomillashtirishdir. Yeshlarni har tomonlama o'rganish ularni o'qishga, mehnatga, o'z-o'ziga, o'rab turgan muhitga, inson kamoloti uchun zarur bo'lgan sifatlardan eng muhimlarini ajrata olishga o'rgatish imkonini beradi.

B) Ota-onalar o'rtasida tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilish, ayniqsa, oilaviy tarbiyada qiyinchilikka uchraetgan ota-onalarga jamoatchilik yordamini kuchaytirish lozim.

V) Oilaviy tarbiyada ijobiy yutuqlarni qoʻlga kiritgan ota-onalarning tajribalaridan foydalanish uchun ularni maktabning kengaytirilgan yigʻilishlariga, ota-onalar qoʻmitalarining majlislariga taklif etish va oʻz tajribalari bilan oʻrtoqlashishni yoʻlga qoʻyish nihoyatda muhimdir. Ulardan unumli foydalanish uchun maktablarda ota-onalar kunini joriy etish zarur.

G) Ota-onalar qoʻmitalari rahbarlarining bevosita boshchiligida radioaloqalarni tashkil etish. Bunda «Ota-onalar – ilk tarbiyachi», «Ota-onalarning bola tarbiyasidagi shaxsiy namunalari va ularning ahamiyati», «yoshlarni mehnatga, hayotga, turmushga oʻrgatish va tayyorlashda oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi» va shunga oʻxshash mavzulardagi eshittirishlarni tayyorlab, izchil oʻtkazish zarur.

D) Bolalarni xalq ogʻzaki ijodiga doir qiziqishlarini oʻstirish maqsadida suhbatlar, hikoyalar, ertak va dostonlar oʻqib eshittirishni yoʻlga qoʻyish lozim.

Maʼlumki, har qanday ota-ona oʻz bolasiga tikanni ravo koʻrmaydi, turli qiyinchiliklar, xavf-xatarlarning oldini olishga intiladi. Ota oʻz farzandlarida maqsadga intiluvchanlik, botirlik, javobgarlik kabi sifatlarni shakllantirish bilan ajralib turadi. Bunday sifatlarni oʻgʻil-qizligidan qatʼi nazar inson egallashi lozim boʻlgan sifatlarni hisoblanadiki, ularsiz toʻlaqonli inson shaxsi kamol topmaydi. Buning isbotini yana shunda koʻrish mumkinki, ona qoʻlida otasiz voyaga yetgan oʻgʻil bolada erkaklarga xos rahbarlik fazilatiga muhtojlik kuchli boʻladi, ayniqsa, u yetuklik yoshiga yetganida bu ehtiyoj yana ham kuchayadi.

Otaga boʻlgan muhabbat-bu birinchi navbatda unga boʻlgan hurmatda oʻz ifodasini topadi. Otaning obroʻsi uning oʻziga xos shaxsiyatida namoen boʻladi. «Menga oʻxshab bajar», «Men qanday ishlasam sen ham shunday ishla» kabi qoidalarga amal qilinadi. Nazarimizda oʻgʻil bola xulqining oʻziga xosligi ham ana shunday xatti-harakatlarda oʻz ifodasini topadi. Shuningdek, ota hgʻlini oʻz fikrini muloyim ifodalay olishga, munozarali voqeada oʻz fikrini qatʼiy himoya qilishga, qiziqqonlik, oʻzligini, qadrini yoʻqotmaslikka oʻrgatadi. Shuning uchun ham otaning oʻrni oʻgʻil bolani kuchli shaxs sifatida shakllantirishda nihoyatda kattadir. Bu sifatlarni esa ota oʻzining shaxsiy namunasida-oʻgʻliga, onaga, aelga, xotin-

qizlarga bo'lgan munosabatlarida qaror toptirib boradi.

Ota-onalarning obro'si va shaxsiy namunalari tarbiya samaradorligini oshiruvchi omildir. Bolalar ma'naviy dunyosining o'ziga xos xususiyatlaridan biri kattalarni obro'li siymo, namuna deb bilishlari, maslahat olishlari, taqlid qilishlari va lozim bo'lgan paytda har qanday yordamni olishlariga ishonch hosil qilishlaridir.

Hech qanday narsa bolalarga namuna kuchidek ta'sir ko'rsata olmaydi. Namuna taqlid uchun asosiy manba rolini o'ynaydi. Shaxsiy namuna esa tarbiya olish sifatida o'sib kelayotgan yosh avlodning ongi va xulqiga ta'sir ko'rsatuvchi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlari va boshqa faoliyatlari yig'indisidir. Kattalarning namuna sifatidagi tarbiyaviy ta'siri shuning uchun ham muhimki, ular aynan bolalar va o'smirlarning taqlidi uchun jonli manbadir. Bolalar ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ko'pincha o'zi sezmagan holda o'z oldiga namuna olsa arziydigan, taqlid qilishga loyiq biron-bir ijobiy shaxs bo'lishini juda xohlaydi.

Atrofimizni o'rab turgan noma'lum narsa va hodisalar, rang-barang olam bilan tanishishda bola kattalarning yordamiga tabiiy ehtiyoj sezadi. Yetarli darajada bilim va tajriba yo'qligi sababli ular kattalarning muomala va xatti-harakatlariga taqlid qila boshlaydi. Yoshlari ulg'aya borishi bilan kattalarga taqlid qilish ham o'zgarib, ma'no kasb eta boradi.

Oilaviy tarbiyada otaning roli nihoyatda ulkan. Chunki oilada er hamma vaqt bolalarining, turmush o'rtog'ining doimiy tayanchi bo'lib kelgan. Shu sababli oiladagi o'g'il doimo otasiga o'xshashga intilgan, uning xatti-harakatiga taqlid qilgan. Xalqimizning dono maslahatlarida o'g'il tarbiyasida otaning roli ulug'lanib kelgan. Ota-ona namunasi bolalar uchun ko'rgazmali hayot darsidir. Otaning onaga, ona mehnatiga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga bo'lgan munosabati bola qalbida yaxshilik yoki yomonlik, ma'qul yoki noma'qul ishlar haqidagi dastlabki tushunchalarni vujudga keltiradi. Maqsadsiz, tarbiya natijalarini hisobga olmasdan qilingan ota-onalar mehnati baribir samarasizlik bilan tugaydi. Og'zaki so'zlar emas, balki ongli, o'ylab qilingan ishlar bola ongi va qalbiga borib yetadi.

Bola odatda, ko'p vaqtini oilasi davrasida o'tkazadi va kattalarning qiliqlari, o'ziga xos xususiyatlarini osonlik bilan qabul qiladi. Bu qiliq va xatti-harakatlarni o'z faoliyatlarida takrorlaydi. So'ralgan paytda «Dadam shunday qiladilar», «Onam shunday degenlar», «Buvim shunday o'rgatganlar» va hokazo degan javoblarni eshitish mumkin.

Oila muhiti-bu qandaydir alohida uzib olingan tarbiya vositasi emas, balki ota-onalarning va katta yeshdagi kishilarning har taraflama olib borgan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va kattalarning ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir.

Bolalarga ota-onalarning xatti-harakatlarigina emas, balki og'zaki nutqi, savol-javoblari ham ta'sir qiladi. Ota-ona o'zaro janjallashib tursalar, qo'shnilari bilan chiqisha olmasalar, bir-birlaridan bo'lar-bo'lmas narsalarni talab qilsalar, bunday tarbiya yaxshi natija bermaydi, aksincha bolaning ota-onalariga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. So'z qudratli kuchga ega. «Yumshoq, mehribonlik bilan aytilgan so'z shunday qudratli kuchki, uning bilan hech qanday jazo tenglasha olmaydi» deyilgan.

Oiladagi totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, kelishuvchilik kabilar ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ruhiy muhitni qaror toptiradi, ularning kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zaro kelishuv, otaning bolalarga va onaga mehr-muhabbati yuksak axloqli insoniy munosabatlari namunasi bo'lib, ular bola qalbini larzaga keltiradi, yaxshi his-tuyg'ular bilan to'ldiradi, atrofni o'rab turgan voqelikka samimiy munosabat tarbiyalaydi. Oilaviy tarbiya ota-onalarning o'z farzandlariga mehr-muhabbatda bo'lishlariga va bolalarining ota-onalarini chuqur sevishlariga asoslanganligi uchun ham ko'proq ahamiyat kasb etadi va boshqa tarbiyalardan farq qiladi.

Hozirgi zamon pedagogikasi ota-onalarga va barcha tarbiyachilarga rahbatlantirish yoki jazolash shakllarini tanlashda qabul qilingan qarorning qanchalik to'g'riligini mantiqan o'ylab ko'rish, o'ziga xos yo'l ekanligiga ishonch hosil qilish va faqat axloqiy, ma'naviy jazolash lozimligini maslahat beradi.

Turli oilalarda ota-onalarning bolalariga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirlari

saviyasini aniqlashda quyidagilarni nazarda tutib kuzatish ishlarini olib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

A) Bolaning ismi, familiyasi, otasining ismi, tugʻilgan yili, oilada bolalar soni, oʻgʻil va qizlarning soni, nechanchi farzand ekanligi, qancha vaqtini oilada yoki oiladan tashqarida oʻtkazadi.

B) Ota-onalarning yoki oiladagi tarbiyachilarning ismi, familiyasi, ularning ish joylari, kasb-hunarlari, oilaning moddiy taʼminoti, uy sharoiti, ota-onalarning va boshqa oila aʼzolarining maʼlumotlari, ularning oʻzaro munosabatlari.

V) Oila aʼzolaridan kim bolalar tarbiyasi bilan koʻproq shugʻullanadi, tartibga bolalar qay darajada rioya qilishadi, ularning oilada va jamoatchilik joylaridagi xulqi qanday, kattalarga qanday muomala qilishadi.

Obroʻ qozonish juda murakkab masaladir, buning uchun eng birinchi navbatda toʻgʻrilik, halollik boʻlishi lozim. Bola kattalarning soʻzlari, xatti-harakatlari, yaʼni beraetgan vaʼda, yurakdan qilinaetgan muomalalariga yoki doʻq-poʻpisalaridan qatʼi nazar ularga ishinishi lozim. Ota-onalarga turli tuman vaʼdalar berishda juda ham ehtiyot boʻlish tavsiya etiladi. Berilgan vaʼda bajarilmay qolsa, uni toʻgʻri va dalillar bilan asoslash lozim. Agar bolaga uy ishlarini bajargani, yaxshi odatlarni namoyish etgani, ota-onalarning topshiriqlarini oʻz vaqtida bajarganligi va hokazolar uchun dam olish kuni kino yoki teatrga olib borishga vaʼda berilgan boʻlsa, har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan vaʼdaning ustidan chiqish lozim.

Keyingi yillarda, maktab maʼmuriyati, oʻqituvchilar, tarbiyachilar oilaviy tarbiyaga, ota-onalarning tarbiya borasidagi obroʻlarining oshishiga, hurmatga sazovor ota-onalarning hayotiy yoʻllari, oilaviy tarbiyadagi tajribalarini targʻib qilishda, shu asosda bolalarda oila qadri va gʻururini yuqoriga koʻtarish xislatlarini uygʻotishda barcha imkoniyatlardan unumli foydalanmoqdalar.

Oilaviy ijobiy anʼanalarni bajarish jarayonida katta yeshdagi kishilarning namunasi yeshlarni oʻylashga, fikrlashga, ijtimoiy hayotni tushunishga majbur etadi. Chunki anʼanalar maʼnaviy omillar sifatida bolaga hayotning u yoki bu jabhasida qanday yaxlit tadbir qoʻllash, oʻzining yoki boshqalarning xulqiy

muammosini baholashga yordam beradi.

Katta avlod vakillarining oilada bo'lishlari faqat bolalar kamolotiga g'amxo'rlik bilan cheklanmay, balki ularning tarbiyasiga ham ta'sir etadi. Bunday yordam omillari ichida ota-onalar va katta yeshdagi kishilarning oila mustahkamligi va qon-qarindoshlik hissiyatlarining uzviy birligi asosiy rol o'ynaydi. Natijada oilaviy tarbiyada bolalarda shakllantirish lozim bo'lgan umumiy ijobiy kamolot, harakter, qat'iyatlik, izchillik kabi ijobiy sifatlar faqat ota-onalar tomonidangina emas, balki katta avlod vakillari, hatto, qarindosh-urug'lar tomonidan ham nazorat qilinadi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, oilaning katta avlod vakillari bilan birga yoki alohida, ajratilgan holda yashashiga qarab tarbiyaviy ta'sir darajalari ham birbiridan farqlanadi. Katta avlod vakillari ishtirokidagi oilalarda bolalarga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sir izchil, bir butunlikda tashkil topadi. O'zaro munosabatlar ham oiladagi a'zolar uchun umumiy bir butunlik asosida bo'ladi. Katta yoshdagi kishilarning tajribasi tarbiya omili rolini o'ynaydi. Ularning ota-onasi, bob va buvisi, yaqin va uzoq qarindoshlarining namunasi bolalar uchun tarbiya vositasi xizmatini o'taydi.

Katta avlod vakillari bo'lmagan, ajralgan yoki alohida yashovchi oilalarda bolalarga ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sir yo'llari qisman farqlanadi. Chunki birinchidan, ota yoki onasi yo'qligi, ikkinchidan, bob yoki buvisining yo'qligi bolalarning ruhiy kamolotiga albatta, u yoki bu darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu masala hozirgi kunda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ota-onalarning ajralishi ko'payib bormoqda.

Qishloq joylarda ota-onalarning barcha mehnat faoliyatlari bolalari ko'z ongida sodir bo'ladi. Shu sababli ular bolalari tarbiyasiga haqiqiy halol mehnatlari orqali ta'sir ko'rsatadilar. Ularni shahar oilalari tarbiyasidan to'g'ridan-to'g'ri ajratib turadigan ustunliklari ham mana shundadir. Shahar oilalari tarbiyasida bu masala ko'proq ota-onalarning, katta yeshdagi kishilarning suhbatlari va hikoyalari, saexat va o'qigan kitoblari asosida amalga oshiriladi. To'g'ri, ota-onalar o'zlarining zavod va fabrikadagi jonli mehnatlari haqida, qo'lga kiritgan yutuqlari

haqida maroq bilan hikoya qilib berishlari mumkin. Ayniqsa, ota-onalarning bolalarini o'zlari ishlab turgan jamoalari hayoti bilan tanishtirish maqsadida zavod, fabrikalarga uyushtirgan ekskursiyalari bolalari qalbida bir umr esda saqlanib qoladi. Bunday yaxshi tashabbus, ish shakllarining kengayib, quloch yeyishi ota-onalar va bolalar mehnatining uyg'unlashuviga olib keladi.

Tarbiya jarayonida ota-onalar va ukituvchilarning bolalarni ijtimoiy foydali ishlarga tortish borasidagi mas'uliyati nihoyatda muhimdir. Lekin, oz bo'lsa-da shunday ota-onalar ham borki, ular bolalarining maktabda metallom yig'ish, gul va daraxt ko'chatlari o'tkazishlarini rag'batlantirmaydilar, quvvatlamaydilar. Ularning fikricha, bunday «mayda» ishlar bolalarining oiladagi, maydonchadagi shaxsiy ishlariga xalal berar emish. Ayrim ota-onalar esa bolalariga kasblar haqida noto'g'ri tushuncha berishadi. Ularning fikricha, kasblar ichida ma'qullari, shuningdek, oilalari sha'niga mos kelmaydigan kasblar borligini ta'kidlashadi. Bolalari tomonidan ota-onalarining bilim, obro'lariga mos kelmaydigan kasbning tanlanishi ularning g'ururiga, izzat-nafsiga tegadi va hokazo.

Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasixat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman, deb o'ylamang. Siz bolani turmushingizning har bir onida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz - bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham, bola buni darrov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'llar bilan bilib oladi, lyokin o'zingiz bundan bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtanchoqlik qilsangiz yoki ichkilik ichsangiz, undan ham yomoni onani haqorat qilsangiz - siz bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz, ularga yomon tarbiya bergan bo'lasiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati juda yomon bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, hayotda ko'plab namunali va obro'li ota-onalarimiz ko'p. Agar ota-ona halol mehnat bilan mashg'ul bo'lsa, bola ularni hurmat qilishga majburdir. Ba'zan esa, ishda juda yaxshi mutaxassis bo'lgan ota-

onalar bolalariga namuna bo'la olmaydilar. Natijada o'zlari bilmagan holda oilalarida isheqmas, ko'cha bezori, erkatoylar kamol topadi.

2.3. Mahallaning tarbiyaviy ta'sir kuchida va ijtimoiy taraqqiyotida urf-odatlarning tarixiy ahamiyati

Odatlarning paydo bo'lishi insoniyat hayotidagi eng qadimiy hodisalaridan biri bo'lgani uchun ularni o'rganish oson emas. Ana shu murakkablikdan kelib chiqqan holda, biz urf-odatlarning paydo bo'lishi jarayonini mavjud bo'lgan manbaalar asosida shartli ravishda 2 qismga bo'lib o'rganamiz.

Qadimda insonlar to'da bo'lib yashagan, bular sovuqdan saqlanish, yirtqich hayvonlar, tabiiy ofatlarga qarshi kurashishda qo'l kelgan. Har bir to'dani yetakchilar boshqargan. Ma'lum vaqtlar o'tib to'da boshliqlari o'zlari uchun imtiyozlar yarata boshladi. Bu esa to'da boshlig'i bo'lishga davralarni ko'payishiga olib keldi. Shu bilan birgalikda to'da rahbarlari va da'vogarlar o'rtasida kelishmovchiliklar paydo bo'la boshlandi. Bunday kelishmovchiliklar janglar bilan tugar, bu kabi xunrezliklarga chek qo'yish hamda urug' ichidagi munosabatlarni tartibga solish uchun ibtidoiy jamoa tuzumidagilar jamiyat a'zolari uchun manfaatli qonunlar yaratildi. Bular esa vaqt o'tgan sari odatga, urfga aylandi. Qadimiy davrlarda paydo bo'lgan odatlardan biri bu "erkaklikka o'tish" odatidir. Marosimga o'spirin yigit katta tayyorgarlik ko'rgan. Urf-odatga ko'ra o'spirin qiynoqqa solib ham sinalgan. O'ziga xos bu imtihondan o'ta olmaganlar o'limga mahkum etilgan. Erkaklikka o'tish marosimidan so'ng "to'y bola" sunnat qilingan. So'ng u bolalik odatlarini tashlab kattalarga qo'shilgan.

Qadim odatlarni o'rganishda tug'ilishga, ulg'ayishga nisbatan o'limga oid ma'lumotlar ko'proq topilgan. Chunki qadimdan saqlanib qolgan qabristonlarni o'rganib, u davrdagi odamlarni dafn qilish odatlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot massagetlarning dafn marosimi haqida shunday deydi: Odam juda qariganida qarindoshlari uni qurbon qilishadi va u bilan qo'y, echki so'yib ziyofat uyushtirishadi va qurbon bo'lib o'lgan inson baxtli o'lim

topgan inson deb atalgan.

Odamlarda turmush tarzi oshgan sari tabiat sirlarini yanada chuqurroq tushinishga intilgan. Qadimgi jamiyatda turli hil odatlar paydo bo'la boshladi. Bu odatlar zamirida tevarak-atrofdagi hodisalarni anglash va his qilishga intilish yotadi. Yuqorida aytganimizdek, paydo bo'lgan odatlardan biri bu – Fetishistik – Fetishizm – bu qadimiy diniy tasavvurlaridan biri. Fetishga e'tiqod qilganlar turli jism, modda, buyum-narsalarning sehrli kuchi borligiga ishonishgan va undan himoya vositasi sifatida foydalanishgan. Fetishizm paydo bo'lib taraqqiy eta boshladi va fetish-buyumlarga taaluqli maxsus buyumlar yaratildi. Qadim fetish odatlari biri bizgacha yetib kelgani bu isiriq tutatish odati. Isiriq ko'z tegmasligi, ins-jinslarni qochirish, inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etish maqsadida keng qo'llanilgan.

Ko'zmunchoq va tumor singari fetish buyumlar taqib yurish odati O'rta Osiyo xalqlarida hozir ham odat tusiga aylanib bo'lgan. Ular mahalliy xalqlarning orzu-niyatlarini ham ifoda etib, an'anaviy badiiy bezaklarga aylangan.

Qadimiy odamlarning turmushi bilan bog'liq an'analar, jamoa bo'lib yashash sardorlik, erkaklikka o'tish, oila va to'y marosimlari poydevori bo'lgan poligam, egzogam, monogam odatlari kabilar taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, odatlarning, urflarning eng qadimiy davrlardan boshlab hayotning barcha sohalarida, tabiatga oqilona madaniy munosabatda bo'lish borasidagi tajriba yutuq va muvofaqqiyatlarni asrab-avaylashda, ularni avloddan-avlodga o'tishida, ajdodlar hayotining ma'no-mazmunini anglashda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan. Ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida kekxa, qariyalar, kasal, ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish qo'ni-qo'shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi.

“Odat” degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo‘lib, u ma’lum sharoit ta’sirida vujudga kelib, kishining fe’l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o‘z-o‘zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma’nosini bildiradi.

An’ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Muayyan bir jamoaning turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatda o‘tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi.

Masalan, ism qo‘yish, nikohdan o‘tish, dafn qilish, xotirlash, ekishga kirishish (urug‘ qadash), o‘rishga kirishish marosimlaridir.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo‘lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni tug‘ilish, uylanish, o‘lim kabilarini qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimlarni o‘tkazishda avloddan-avlodga o‘tadigan, ramziy va rasmiy an’analar, qoidalarga amal qilinadi.

Marosimga, bo‘layotgan voqeaga “guvoh” sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g‘ami yoki quvonchiga sherik bo‘lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o‘ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (boshlanishi, o‘rtasi, oxiri) bo‘ladi. Inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqeani nishonlash jrayonida an’ana ham, odat ham marosim ham mujassamlashadi.

Buni quyidagi misolda ko‘rish mumkin. Yoshlar voyaga yetganida – yigitlar uylanadi, qizlar turmushga chiqadi. Bu avloddan-avlodga o‘tib keladigan an’ana sanaladi. Yigit-qizning oila qurishi uchun nikoh to‘yi o‘tkaziladi. Nikoh to‘yi o‘tkazish esa insoniyat hayotiga singgan, muayyan qoidaga, ma’lum tartibga ega bo‘lgan urf-odat hisoblanadi. Nikoh to‘ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinning nikohdan o‘tishidir. Har bir davrda bu to‘y bilan bog‘liq o‘ziga xos odatlar vujudga keladi. Masalan, hozirgi payta maxsus bezatilgan mashinalarda ko‘chalarda yurish, guvohlar bilan “Baxt uyi”ga borish, nikohdan o‘tayotganda

davlat madhiyasining yangrashi, “Baxt uyi” xodimlarining savollariga javob berish, kerakli xujjatlarga imzo chekish, nikoh uzuklarini almashish kabi odatlarga amal qilinadi. Bu rasmiy va tantanali ravishda o‘tadigan marosimdir. Bu rasmiy nikoh to‘yidagi odatlarning ado etilishi kelin-kuyov, ularning shodiyona kunida qarindosh-urug‘i, yoru-do‘stlari uchun haqiqiy shodiyona sanaladi.

“An‘ana”, “odat”, “marosim” bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an‘analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo‘lishi mumkin.

Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarning ishlab chiqarishga borib ish boshlashi odat tusiga kirib qolgan. Bu muhim voqea munosabati bilan an‘anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi – yoshlarni tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish o‘z-o‘zidan marosimga aylanadi.

Ba‘zi xolatlarda “an‘ana”, “odat” va “marosim” tushunchalari alohida ishlatilsa, ular mavhum ma‘noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so‘zlar qo‘shilib, masalan, “an‘anaviy bayram”, “an‘anaviy festival”, “an‘anaviy kecha” yoki “mukofotlash marosimi”, “to‘y marosimi”, “nafaqaga kuzatish marosimi” tarzida qo‘llaniladi. “Marosim” so‘zi jamoatchilik ishtirokida o‘tkaziladigan katta tadbir ma‘nosini bildiradi.

Oilaviy urf-odatlar oila paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Shu bilan birga o‘zgargan, rivoj topgan. Taraqqiyot, zamon talabiga javob bergan urf-odat yanada kuchayib zamonga qarab rivojlanib bormoqda.

O‘zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig‘iriqlaridan o‘tib, muhim ma‘naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Urf-odatlarimizga aylanib qolgan chaqaloqni beshikka solish kabi urflarimiz mavjud. Urflarimizga aylanib qolgan beshik to‘yini yoritar ekanmiz, beshik to‘yi qadim zamonlardan har bir oilada o‘tkazilib kelingani tufayli, bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Beshik to‘yi haqida ma‘lumot berishdan oldin beshik to‘g‘risidagi tushunchani yoritib o‘tamiz.

Chaqaloq tug‘ilishidan keyingi muhim urf-odatlarimizdan biri – bolani beshikka solish marosimi va beshik to‘yidir. Mazkur to‘y ayrim joylarda kichik

oilaviy bir marosim shaklida o'tkaziladi. Mana shunday urf-odatlarimiz hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Hozirga kelib o'zbek xalqi hayotida ham yaqin yoshlar ichida avvallari mavjud bo'lgan ko'plab ijtimoiy va shaxsiy-oilaviy an'ana, urf marosim va bayramlarga yana yangiliklar kiritilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng turmush va tarbiya jarayonida an'ana, urf-odat va marosimlar masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqil Respublika fuqarolarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ular ongida ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirishda, urf-odat, an'ana va marosimlar ta'sirchan vositalardan biri bo'lib qoldi. Ijtimoiy taraqqiyotda kishilarning urf-odat va marosimlari shakllandi. Chunki ular muayyan g'oyalar, qarashlar, axloq normalarini ifodalaydi. Ilg'or an'analar, urf-odat va marosimlar jamiyatimiz hayotida, kundalik turmushimizda, mehnat va ishlab chiqarishda, ilmiy va badiiy ijodda, oila va o'quv dargohlariga tarbiyaviy ishlarimizda, shaxsiy xulq-atvorda o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni o'taydi.

Xalq va jamiyat o'z ehtiyojlariga yarasha an'ana, urf-odat, marosim va rasm-rusumlarni yaratar ekan, doimo nafosat va go'zallik qonunlariga, qaxramonlik va ulug'vorlik, ijtimoiy hamjihatlik prinsiplariga qat'iy amal qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimizning unutilayozgan an'analari, marosimlari va urf-odatlari yana hayotga qaytarildi. Ular xalqimiz turmushidagi unutilmas hodisalarni o'z negizida mujassamlashtirdi. Shuning uchun Respublikamiz hukumati xalqimizning hayotga tarixan singib kelayotgan an'ana, marosim va urf-odatlarini qaytadan qaror toptirishga doimo ahamiyat bermoqda. Urf-odat va marosimlar barqaror bo'lishiga qaramay, yangi davr, yangi tuzum ehtiyojlariga muvofiq o'zgarib boradi. Mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik. Jasorat, mehmondo'stlik, bolajonlik singari an'analar mamlakatimiz hududida azaldan mavjud. Ammo bu an'analar mustaqillikka erishganimizdan keyin yangi ma'no kasb etmoqda.

An'analar, urf-odat va marosimlar shaklida namoyon bo'ladi. Urf-odat nisbatan o'xshash, ma'lum darajada takrorlanib turadigan holatlarda muayyan xatti-harakatlarning aynan takrorlanishi, unga so'zsiz amal qilinishini bildiradi.

Kishilarimizning shaxsiy va oilaviy hayotida sodir boʻladigan unutilmas voqealarni, yaxshi kunlarni xursandchilik nishonlashga boʻlgan intilishlari yangi-yangi anʼana va marosimlarni yuzaga keltirmoqda. Chunonchi, kishi hayotida eng muhim davrlar – tugʻilgan kun, maktabga borish, balogʻatga yetish, nikohdan oʻtish va shu kabilar fuqarolik marosimlari saqlanib, ularning har biri kishi oldiga yangi talablar qoʻyadi, yangi huquqlar beradi va nihoyat uning jismoniy va aqliy kamolotiga yetishida muhim bosqich boʻlib hizmat qiladi. Barcha marosim va bayramlarning ana shu tomonlariga alohida eʼtibor berish ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.

Urf-odatlar ijtimoiy taraqqiyotning oʻziga xos amaliy negizidir. Ular turgʻun va barqaror harakterga ega boʻlib, ayrim yoki yakka shaxslar tomonidan emas, balki koʻpchilik tomonidan roʻyobga chiqariladi. Masalan, ota-onaga hurmat, keksalarga ehtirom, mehmondoʻstlik kabilar xalqimizning asosiy urf-odatlaridan boʻlib, bularga xalq anʼanalarining bir koʻrinishi sifatida amal qilinadi. Marosim tushunchasi muayyan soʻz va harakatlarning qaytarilishini bildiradi, lekin bunda soʻz va harakatlar shartli ramziylik kasb etadi. Urf-odatlarda soʻz va harakatlar moddiylashgan boʻlsa, marosimlarda moddiy olamning, predmetlarning oʻrnini shartli – harakatlar, soʻzlar, tasvirlar egallashi mumkin boʻladi. Boshqacha qilib aytganda, marosimlar, urf-odatlarning barqarorlashgan shaklidir. Marosimlar ichki yaxlitlik, kompozitsion birlilik, shaklan bejirimlikka ega boʻladi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri nazokat va latofatligidir. Masalan, hosil bayramlarini, paxta bayramini, gul va bahor bayramlarini, uzum, qovun sayllarini, nikoh toʻylari marosimlarini olaylik. Bu sayl va bayramlar shodlik, toʻkin-sochinlik, nafosat tantanasi sifatida amalga oshiriladi.

Bir butun marosim bir-biriga bogʻliq boʻlgan bir qancha kichik marosimlarni, urf-odatlarni oʻz ichiga oladi. Bular marosimchilik deb ataladi.

“Rasm-rusum” tushunchasi marosimchilik urf-odatlari doirasiga mansub boʻlgan konkret soʻz va harakat shakllarini, ularning oʻzaro bir-biriga nisbatan boʻlgan rolini, joyini, munosabatini anglatadi. Demak, rasm-rusumlar marosimchilik va urf-odatlarning namoyon boʻlish shaklidir. Masalan: toʻy,

mehmon kutish, dafn bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlar umumiy tomonlar bilan bir qatorda har bir yerda, har bir millatda so'z va harakatlar bilan ajralib turadigan o'ziga xos tomonlarga, ya'ni rasm-rusumlarga ham egadir.

Hashar, mehmondo'stlik, mardlik, jasorat, halollik, do'stlik, mehnatsevarlik, san'atsevarlik, turli millatlarga hurmat va qardoshlik kabi an'ana, odatlar qadimiy va ijtimoiy taraqqiyotda ular haqidagi bo'lgani uchun tarixiy ahamiyatga egadir va doimo saqlanib boraveradi.

Masalan, har yili paxta yig'im-terimi paytida umumxalq hashari uyushtiriladi. Gul va bahor bayrami, paxta bayrami, hosil bayrami, hashar, uzum sayli, uloq chopish kabi urf-odatlar esa milliy harakter kasb etadi.

Azaldan davom etib kelayotgan urf-odatlar, chunonchi, hashar, nikoh marosimlari, navro'z, bahor bayramlari, uzum-qovun sayllari va hokazolar yangicha mazmun kashf etmoqda. Hozirgi kunda chaqaloqlarni tantanali ravishda ro'yxatga olish, yosh go'dakka nom qo'yish, 16 yoshga yetgan o'smirlarga pasport topshirish, mehnat fahriylarini tantana bilan nafaqaga kuzatish yangi an'analardandir.

Xalqimizning eng yaxshi, ajoyib milliy an'analari qadimdan davom etib, avlodan-avlodga o'tib, mustaqil yurtimizdagi ijtimoiy munosabatlar shakllanayotgan jamiyatda yangi mazmun kasb etmoqda, boyimoqda, mustaqilligimizni mustahkamlashda yosh avlodni tarbiyalashda hayot maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Zamonlar va avlodlar o'rtasidagi aloqa, ang'analar orqali amalga oshiriladi.

Qimmatli urf-odatlar shu an'analardan o'zining to'la ifodasini topadi. Otabobolarimizning donishmandligini aks ettirgan va azaldan oddiy mehnatkashlarga xos bo'lgan olijanob tuyg'ularni e'zozlaydigan xalq urf-odatlari bu an'analalar orasida eng fahrli va muhim o'rin tutadi. Shuning uchun xalq an'analari rivojlantirishga obektiv yordam beradigan eng yaxshi, eng qimmatli milliy urf-odat va marosimlarni tanlab olish kerak. Keksalarni, xotin-qizlarni izzat-hurmat qilish, mehmondo'stlik, o'zaro yordam va bolalarga mehr-muhabbat tuyg'ularini ifoda etuvchi an'analalar barcha xalqlar hayotida uzoq zamonlardan beri davom etib

kelyapti. Insonning kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan an'analardan kishilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muntazam foydalanish zarur. Xalqimizning ijobiy an'alaridan biri – keksalarni hurmat qilish juda katta tarbiyaviy hamda ijobiy ahamiyatga ega. Hukumatimiz keksa avlodning xizmatlarini qadrlab kelmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan pensiyalar, juda ko'p imtiyozlar, unvonlar, davolanish, dam olish uchun sanatoriylar, shifoxonalar va boshqa imtiyozlar mustaqil yurtimizning keksalar to'g'risidagi beqiyos g'amxo'rlikning guvohidir.

Odamlarning bir-birlariga mehr-oqibatlari, samimiy, to'g'ri munosabati, iltifoti va ehtiromi mustaqil O'zbekistonimiz fuqarosining ichki go'zalligini, boy ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Milliy an'alarimizning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, xalqimizning “Mehmon otangdek ulug'”, “Mehmondan ulug' kishi yo'q”, “Mehmon kelsa mushugingni ham pisht! dema” degan hikmatlari mehmondo'stlikka undaydi. “Mehmon kirsam eshikdan, rizqi kelar teshikdan” degan iborasi esa har qanday sharoitda ham mehmonni beminnat, samimiy kutib olish kerakligini anglatadi.

Yana bir yaxshi odat – insonparvarlikdir. Chin inson pok qalbli, sofdil, diyonatli, vijdonli, chuqur irodali, oqil kishi bo'lishi bilan birga yurt, Vatan, jamiyat manfaati, tashvishi yo'lida jon fido qiladigan, kishilar osoyishtaligi, tinchligi va baxt-saodati yo'lida doimo qayg'uradigan bo'lmog'i kerak. Shundagina uning haqiqiy insonparvarligi, insoniyligi, boy ma'naviy go'zalligi to'laligi bilan namoyon bo'ladi.

Insonparvarlik – jamiyatimizda qaror topgan, tobora yangi mazmun kasb etayotgan milliy an'analarning yuksak ko'rinishlaridan biridir. Inson mustaqil O'zbekistonda shu zaminda qadr topdi va izzat-hurmat ko'rdi. Respublikamiz hukumatining olib borayotgan siyosatida “Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun” degan g'oya amalga oshirilmoqda.

Insonning oliyjanoblighi, odamiylighi uning tanishga ham, notanishga ham beg'araz yordam qo'lini cho'zishi bilan belgilanadi. Millatimizning turmush tarzi odamlarning bir-biriga do'st, mehribon, g'amxo'r, jonkuyar va hamdard

bo'lishidir. Ana shu insoniy fazilatlar bilan jamiyatimiz yanada jipslashmoqda, kamolot yo'lidan bormoqda. Shu borada Qirg'iziston Respublikasi Osh, Qorasuv va boshqa shaharlarida bo'lib o'tgan vaxshiyona xunrezliklarni oqibatida begunoh odamlar oilasidan, uy-joyidan, yaqinlaridan ajradi. O'zbekiston Respublikasi juda katta insonparvarlik ishlarini olib bordi. Oziq-ovqat, yotishga boshpana va hokazolar bo'yicha yordam qo'lini cho'zdi.

Bu borada aytib o'tish kerakki, O'zbekiston xalqi va hukumati insonparvar, mehr-oqibatli, samimiy, diyonatli, kishilar osoyishtaligi, yurt tinchligi yo'lida doimo qayg'uradigan yurt ekanligi yaqqol ko'rindi. Mustaqil yurtimiz fuqarolari qaysi millat yoki xalqqa mansub bo'lmasin, hammasining Vatani bir, maqsadlari, manfaatlari bir. Xalqimizning do'stlashishi – jamiyatimizning ulug'vor kuchidir, bizning juda katta boyligimizdir. Bu do'stlik asosan ikkinchi jahon urushi yillari chiniqdi. O'zbekiston xalqi bir burda nonini boshqalar bilan baham ko'rdi. Xalqimizda “Do'stlik barcha boyliklardan afzal”, “Arpa, bug'doy bir kuningga yaraydi, sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi”, “Do'st achitib gapirar, dushman - kuldirib”, “Do'st – do'stning tayanchi”, “Do'st – do'stini kulfatda sinar”, “Do'st yomon kunda bilinadi”, “Do'stdan molini ayamagan, eldan jonini ayamas” kabi ko'pgina maqollar borki, bularda do'stlikni qadrlash masalasi ifodalangan. Eng yaxshi o'lmas urf-odatlar bora-bora an'anaga aylanadi. Urf-odatlar odamlar turmushidagi ijtimoiy munosabatlarning barqaror bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Salomlashuv burchiga sodiqlik bizda yaxshi an'anaga aylanib qolgan. “Assalomu alaykum – ham qarz, ham farz” maqoli zahirida burchga sodiqlik an'anasi yotadi.

Salomlashuvda mehr-muhabbat, qadr-qimmat, oqibat kabi insoniy xislat aks etib turadi. Salom beruvchi va alik oluvchining qiyofasi shu an'anaviy odat orqali namoyon bo'ladi.

2.4. Oilalarning vujudga kelishida urf-odatlarning o'rni

Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi. Etnik madaniyat, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz

saqlanadi. Bilamizki, oila tarbiya o'chog'i bo'lib, ma'naviy yetuk bo'lsagina jamiyat tayanchiga aylanadi. O'zbek oilalarida bolalarga yoshligidanoq milliy urf-odatlar, an'analar singdiriladi va shu omillar asnosida tarbiyalanadi.

Yangi tavallud topgan bolaning qulog'iga ota-bobolarimiz avval mulla chaqirib azon aytirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochilgan, ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga singdirilgan. So'ng ularning chillasi – kichik chilla va katta chilla o'tkaziladi. Qirq kunlik katta chillasi chiqqandan so'ng beshikka belash marosimi o'tkaziladi.

Tavallud topgan bosh farzand bo'lsa, bozordan beshik sotib olishadi. Beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida alohida san'at darajasiga ko'tarilgan. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy hol. Onalar qadimdan o'z bolalari tepasida kecha kunduz alla aytib kelishgan. Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, xazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi.

Qadimdan ota-bobolarimiz boshqa odatlar qatori ism qo'yish odatini ham asrab-avaylab kelishgan. Ota-onalarning islomiy farzi o'z farzandlariga munosib ism topib qo'yishdan iboratdir. Udunga ko'ra avvallari ism tug'ilgan bolani qaysi urug'dan, qanday sulolaning nechanchi avlodi ekanligi, uning tavallud topgan vaqti, joyi, bola tanasidagi alohida belgilarga qarab "kitob ko'rib" qo'yilgan. Qishloq yoki mahallaning keksa, o'qimishli kishilari ism qo'yish huquqiga ega bo'lganlar. Avvalo ismlar xudo, payg'ambarlar nomlari asosida Rasul, Akbar, Nabi, Muhammad singari atalgan. Ajdodlarimiz ismlardan tashqari taxallus ham tanlashgan. Taxallusda ko'proq tug'ilgan joylari aks etgan. Zamon zayli bilan ismlar ham o'zgarib turadi. Masalan, so'nggi yillarda Alisher, Bobur, Ulug'bek, Oybek singari nomlar keng tarqalgan. Qizlar orasida esa Nargiza, Nodira, Gulchehra, Maftuna ismlarini uchratish mumkin. Egizaklar albatta Xasan-Xusan, Fotima-Zuhra deb atalishi shart. Er-xotin bir-birini ismini aytib chaqirishmaydi, zarur bo'lganda, biror farzandini ismini aytib chaqirishadi. To'g'ri ism olgan o'g'il-qiz, ota-onaning, avlodning davomchilari bo'lib xizmat qilishligini talab qilishadi.

Masalan, o'g'il bolalar ota kasbini olib uni davom ettirsa, qizlar milliy urf-

odatlarimizdan kashtado‘zlik, do‘ppi tikish kabi hunarlar farzandlarga o‘rgatib boriladi. Bunday urf-odatlar farzandlarga to‘g‘ri singdirilsa, ularda axloqiy-ma’naviy fazilatlar kamol topadi. Bu eru-xotinning ikki vujudning qo‘shilishidan iborat bo‘lgan ittifoqdan tashkil topadi. Oila urf-odat, rasm-rusum hamda an’analarini saqlaydigan, shu bilan birga komil shaxs tarbiyalab jamiyatga qo‘shadigan makon.

Oilada farzand katta bo‘lgani sayin jamiyatga qo‘shilib boradi. Shu bilan birga bir vaqtning o‘zida, farzandni ota-ona oldidagi burchini bajarish jamiyatga kerakli shaxs bo‘lish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun ota-ona oila sharoitida milliy an’ana va rasm-rusumlarga tayangan holda voyaga yetayotgan bolaga va uning ongiga insoniy, tarbiyaviy, axloqiy fazilatlarni singdirib boradi.

Ota-onalar bola tarbiyasida nihoyatda ehtiyot bo‘lishligi talab etiladi. Farzandlar tarbiyasida oilada milliylikni, milliy urf-odatlarni shakllantirish zarur. Zeroki oldin ota-ona shu milliy urf-odatlar bilan tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda A.Avloniyni quyidagi so‘zlarini keltirib o‘tishimiz lozim. “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo falokat, yo halokat, yo saodat masalasidir”¹ degan edi. Demakki, biz bola tarbiyasida nihoyatda ehtiyot bo‘lishimiz darkor. Buning uchun biz asrlar davomida sayqallangan urf-odatlarimizga murojaat qilsak farzandlarimiz jahondagi eng noyob tarbiyali, ilmi farzandlardan bo‘lib yetishadi. Bilamizki bizda hayo, ibo singari milliy an’analarimiz bor. Bunda biz oila muhitida otaga tik boqmaslikni, oila boshlig‘i kelmasdan oldin taom yeyilmasligi bundan tashqari bizning ko‘plab milliy urf-odatlarimizni jahon ahli xavas qilgudek qadriyatlarimiz mavjud. Shuning uchun biz oilada bola tarbiyalashda ana shunday urf-odatlarni chetlab o‘tmasligimiz zarur. Hozirgi zamonaviy oilalarimizda milliy urf-odatlarimizdan oldin moddiy tomonni o‘ylaydilar. Shuning uchun gohida bola tarbiyasida ba’zi kamchiliklar uchrab turadi.

Masalan, bir kuni avtobusda ketayotsam yosh bir yigit o‘rindiqlarda o‘tiribdi. Uning ro‘parasida bir mo‘ysafid turib kelmoqda, ancha vaqtgacha hech kim indamadi. Unga bir odam tog‘aga joy bermaysizmi? Sizdan ancha yoshi katta ekan

¹ Qarang: A.Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. T.: “O‘qituvchi” -1992, 14-b

deb aytgan edi. U kishini ham yoshiga qaramasdan jerkib berdi. Shunda o‘ylanib qolasan kishi nahotki, shu bola shu bog‘dan chiqqan bo‘lsa, demakki bu oilada milliy urf-odatlariga bepisandlik bilan qaralar ekan. Chunki bizning go‘zal urf-odatlarimizdan biri bu o‘zidan kattalarni hurmat qilishdir. Demakki, biz oilada farzand tarbiyasida milliyligimizni chetlab o‘tsak, bu o‘stirayotgan farzandlarimiz jamiyatimiz uchun bir foydasiz axloq-odob me‘yorlaridan uzoq bir shaxs bo‘lib qolmasmikin?

Bizni oilamizda qariya, nuroniylar bor, ular bizga doimo bizni odatlarimiz go‘zal, bu hech qaysi mamlakatlarda takrorlanmaydi deb aytadilar.

Davlatimizda yoshlarni tarbiyalashda Sharqona odob-axloq, milliy an‘ana, urf-odatlardan foydalaniladi. Biz ota-onalar oilada ularga tushuntirish ishlarini olib borishni millatimizni izzat-nafsigaga tegadigan ayrim no‘maquul hollardan asrashimiz shart.

Afsuski, san‘atda oshkoralikni pesh qilib televizor kino ekranlarida, matbuot vositalaridan bo‘lmag‘ur lavhalarni ko‘rsatish, bema‘nilik va hayosizlik, ba‘zan esa xatto axloqiy buzuvchilikni targ‘ib qilishlar ham ko‘rinib qoldi. Bizning yosh avlod vakillarimiz bunday narsalarni ko‘rib qanday inson bo‘la oladi. Bizning odatlarimizga ko‘ra qizlar otasi oldida vaqti kelsa choy icha olmagan otani yuziga tik qaray olmaganlar. Endilikda esa turli xil seriallar hattoki oila davrasida ota va qiz, ona va o‘g‘il birgalikda ko‘rmoqdalar, qani bizni oiladagi milliylikni saqlash. Farzand tarbiyasida ota-onaga muhim ahamiyat kasb etadi. Agar oilada ona bosh maqomga ega bo‘lsa, bu oila milliylikdan umuman yiroq. Bizning odatlarimizga ko‘ra bosh maqom faqat otaga tegishli bo‘ladi. Modomiki oilada kattalarga hurmat kichiklarga izzatda bo‘linsa, bu oilada kamol topayotgan farzand ham hushxulqli, tarbiyali bo‘ladi.

Prezidentimiz “Fidokor” gazetasining muhbiri savoliga javoblarida oila barkamol yosh avlodni tarbiyalashda ibrat-tarbiya maktabi ekanligini ta’kidlab, unga g‘oyat sermazmun falsafiy talqin bergan: “yurtimizda har bir inson uchun Vatan tushunchasi oiladan boshlanadi. Shu bois oila va mafkura tushunchalari chambarchas bog‘liqdir. Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, tarbiyaviy axloqiy

ahamiyati, qadr qimmatini anglab yetmasdan mafkura yarata olmaymiz. Darhaqiqat, o'zbek oilalarining barkamol avlodni tarbiyalashda o'rni benihoya katta. Bu yerda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an'analar urf-odatlar, ota-onalar va bolalarning o'zaro hamkorligi va hurmati qarindoshlarni bir-biriga yordam qo'lini cho'zishi, bolalar haqida g'amxo'rlik qilishda yoshlar uchun mustahkam ishonchli muhitni yaratilishi, oilaviy pokizalik talablarini saqlanishi kabi urf-odatlar o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyati va axloqi uchun negiziga aylandi, maishiy-madaniy turmushning asosiy tushunchalari va qoidalari xalqimizning urf-odatlari marosimlari va rasm-rusumlari mustahkam qo'rg'ondek saqlanib qoladi va avlodan-avlodga yetkazib beriladi. Oilada yetuk va barkamol shaxsni tarbiyalashda ota-ona milliy urf-odatlarni qo'llashni bilmog'i kerak.

Hech qaysi yurtda oilani bizchalik qadrlamaydi, bu bilan o'zgalarni qadriyatlarini yerga urmoqchi emasmiz. Fikrimizga yaqqol misol 1998 yil oila yili deb e'lon qilindi. Buni zamirida ko'p narsalar yotibdi. Bunday imkoniyatlardan foydalanib biz milliy urf-odatlarimizga yo'g'irilgan oila barpo etishimiz zarur.

Demakki, urf-odatlarimiz oilada farzandlarimizni barkamol bo'lib o'sishiga hissa qo'shar ekan, ba'zilar bunday odatlarni eskilik sarqiti deb ataydilar. Ana shunday oilada tarbiya topayotgan bolalar o'z ota-onalarini hayoti davomida hurmat qiladi va jamiyatga fidoiy shaxs bo'la oladi deb kim kafolat bera oladi? Zeroki, bunday bo'lmasligi uchun milliy urf-odatlarimizni tugal ma'nosini tushunib yetgan bolalar tarbiyasida keng qo'llay olsak bizlar o'zimiz uchun porloq kelajak yaratamiz. Jamiyatga ega ma'naviy yetuk insoniylik tuyg'ulariga ega shaxs yetkazib beramiz. Zeroki, Aristotel oilani "Saodat uyi" deb atagan. Vatanimizda Arastu aytganidek baxt-saodat uyiga aylantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ana shu uyning sohibini sog'lom aqlli, bilimli, tashabbuskor fidoiy ma'naviyatli urf-odatlarga hurmat bilan qaraydigan yoshlarni – barkamol avlodni tarbiyalashni oilada yana ham keng astoydil olib borish davr talabidir.

Oilani vujudga kelishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan urf-odatlardan biri, oilani barpo etish uchun avvalo odatimizga ko'ra sovchilar boradi. Keyin non singdiriladi, fотиha to'yi, nikoh to'yi bo'ladi.

Oila paydo bo'lishi bilan odatlar, urflar, rasm-rusumlar ham paydo bo'lgan. Shu bilan birga o'zgargan va rivoj topgan. Taraqqiyot, zamon talabiga javob bermagan odat-marosimlar unutilgan ularni o'rnini esa oila ehtiyojlarini qondiradigan yangi marosimlar egallagan.

O'zbek xalqining oilaviy urf-odatlarini ham tarixiy zarurat yuzasidan vujudga kelgan va zamon chig'iriqlaridan o'tib sayqallangan. Sho'rolar davrida har bir kishi yaxshi yashay olmasa, butun jamoat yaxshi yashay olmasligi uqtiriladi. Bu davrda asosiy e'tibor davlat ishlariga qaratiladi. Shaxs oila ehtiyojlari esa quyi darajaga tushib qolgan. Jumladan, katta davlat bayramlari, soyasida qolgan oilaviy an'analar unutila boshlandi. Xalqning asrlar mobaynida to'plagan bebaho boyligi – shaxs va oila hayoti bilan bog'liq marosim va bayramlar unutildi.

Beshik qo'ydi, quloq tishlash odatlari so'nggi paytlarda yo'q qilib kelindi. Bu udumlar Surhondaryo viloyatida saqlanib qoldi. "Beshik qo'ydi" odati haqida so'z yuritadigan bo'lsak, oilada qiz bola tug'lsa beshikka belash to'yi o'tkaziladi. Shunda o'g'illik birodarlardan biri niyat qilib, yetaklab borgan 5-6 yashar o'g'ilchasiga chaqaloq qizaloqni so'rashadi. Agar oilaning bobosi, buvisi, ota-onasi rozi bo'lsa, "quloq tishlar" odati o'tkazilgan. Ulg'ayayotgan qiz o'z nihol umri davomida "qulog'ini tishlagan" yigitga, yigit esa bo'lajak kelinchakka g'oyibona mehr, intilish, hurmat bilan voyaga yetishgan. Ikki tomon ota-ona ham shunga munosib harakat qilishib tuzilajak oilani tadorigini ancha uzoqdan ko'rib borishgan. Beshik, sandal, xudoyi, sunnat, Navro'z odat marosimlari singari "Beshik qo'ydi", "Quloq tishlar" udumlari ham so'nggi yillarda unutildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng sodir bo'lgan katta o'zgarishlardan biri oila qadriyatlarini aniqlashdan iborat. Shu sababli, oilaviy an'analar, marosim va bayramlarni mustahkamlash va rivojlantirish jamiyatimiz, ijtimoiy madaniy hayot negiziga aylandi. Bunday marosimlar urf-odatlar inson tug'ilib o'sgandan to umrini oxirigacha umrining eng muhim voqealarini ifoda etadi. Bu odatlar haqida kitoblar chop etila boshlandi. Bu bejiz emas, chunki oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan odob-axloq,

mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyatini shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Oilaviy marosimlar kishilik jamiyatida madaniyatning muhim bo'lagi hisoblanadi.

Bunday olib qaraganda har bir udumlar zamirida oilani mustahkam bo'lib rivoj topishi yotadi. Shunday urf-odatlar insonni sihat-salomatligiga bog'liq bo'lganlari ham bor. Agarda oila vujudga kelar ekan undagi kamol topuvchi shaxs va onani sog'ligi birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun o'zbek oilasida chaqaloq tug'ilib to voyaga yetguncha o'zi yangi oila qurguncha uni boqish, tarbiyalash, uylantirish odat tusiga kirgan. Tarixdan ma'lumki, oilani ilk shakllanishi turli joylarda turlicha hilda paydo bo'lgan. Yakka monogam oilani vujudga kelishi insoniyat hayotida juda muhim voqea bo'lgan. Chunki, oilalarni paydo bo'lishida urug'chilik jamiyatini tashkil topishiga, urug'chilik jamiyatida er-xotindan tashkil topgan va u "oila jamoasini" vujudga keltirgan.

Matriarxat davrida esa, odatda qiz o'ziga qayliq tanlagan. Lekin qiz o'zi istagini hammaga bildirishi va tanlagan kuyovni barchaga tanishtirishi shart bo'lgan. Ko'pincha ana shu tanishtiruv vaqtida yoki keyinroq ziyofat berilgan. Bu holning odatga aylanishi keyinchalik oilani vujudga kelishidagi muhim voqea to'y-marosimlarga ulangan.

Urug'chilik davrida oila vujudga kelishi bilan to'y-marosimlarning ilk shakllari paydo bo'lgan. To'y esa butun jamoaning bayramiga aylangan. Qadimgi to'y marosimlarini o'ziga yarasha odatlari bo'lgan bulardan biri kelin-kuyov oila qurishga tayyor ekanliklari sinalgan. Matriarxat davrida kuyov alohida sinovdan o'tgan. Kuyovni turmushda lozim bo'ladigan ov qilish, o'tin yorish, olov yoqish kabilar bo'yicha qobiliyatlari sinab ko'rilgan patriarxat davri esa teskari jarayonlar ko'zga tashlanadi. Bunda kelin kiyim tikish, uy-ro'zg'orni tartibga solish ovqat pishirish odatlarini namoyon qilishi kerak bo'lgan.

Shunday qilib, insoniyatning madaniylashish negizida jamiyatning ilk boshlang'ich negizi, asosi oila va uning paydo bo'lishida to'y-marosimlari vujudga kelgan. Quyida urf-odatlarimizdan biri bo'lgan to'y marosimlari haqida fikr-mulohaza bildiramiz. To'y-hayotning katta shodiyonasi, oila baxt saodati va

farovon turmush ramzi, inson umri gultoji hayotning eng totli va eng quvonchli davri hisoblanadi. To'y o'tkazish udumi mavjud. Bu barcha xalqlar turmush-tarzida o'rin olgan. Hozirgi kunda to'y-marosimlarini o'tkazishda moddiy tomonga ko'p e'tibor berilmoqda. To'ylarning ma'naviy badiiy saviyasi zamon talabidan ortda qolmoqda. To'ylarni o'ziga xos tashkil qilish, ularni har tomonlama tartibga solish ixchamlashtirish, boyitish zamon talabidir.

Oilaning vujudga kelishiga uni rivojlanishiga olib kelgan to'y-marosimidan biri nikoh to'yi sanaladi. Nikoh to'yi har bir inson qalbida, hayotida yangi sahifa ochadi. U oila quradigan har bir qiz va yigit uchun unutilmas voqeadir. Nikoh to'yi oilaviy marosimi bo'lib, uni tashkil qilish uzoq muddatni o'z ichiga oladi. Nikoh to'ylarining o'ziga xos urf-odatlar mavjud. Nikoh to'ylari 3-bosqichni o'z ichiga oladi. 1-bosqich. Kelin topish, sovchi bo'lib borish, fотиha qilish kabi marosimlardan tashkil topgan. 2-bosqich. Kelinni kuyovning uyiga olib kelish nikohlash, to'y-tomosha qilish bu bosqich mohiyat jihatdan muhim oliy nuqtada turadi. 3-bosqich. Nikoh to'yidan so'ng o'tadigan marosimlar "yuz ochdi", "kelin salom" kuyov chaqirdi marosimlaridir. Farg'onada nikoh to'ylari odatlari shakllari rang-barangdir.

"Qiz ko'rdi", "bosh boylandi", "kovush yirtdi", ro'mol tashash, og'iz moylandi, "non sindirildi", "bo'ldi-bo'ldi", "o'g'ri tovoq", "shirin suv", hayitlik, fottiha to'yi, idish qaytdi, "to'qqiz uy to'qqiz tovoq" va hokazo.

Hozirgi paytda nikoh to'ylari ancha ixchamlashdi. Shuni aytib o'tish kerakki, nikoh to'ylarida o'zbek xalqining eng ma'naviy fazilatlari namoyon bo'ladi. Bu to'yga barcha oldindan ruhiy tayyorlanadi. Eng yaxshi liboslar kiyiladi. Hamma odob-tovoze bilan muomala qiladi. Bu esa to'y qatnashchilari o'rtasidagi hamjihatlikni, ahillikni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Nikoh to'yi ikki yoshning yangi hayot qurishi bilan bog'liq bo'lgan tadbir bo'lishi barobarida, o'ziga xos ijtimoiy ahamiyatga egadir. Nikoh to'yi – oila qurgan yigit va qiz oldiga jamiyatning kichik yacheykasini tuzish, avlodni davom ettirish jamiyatga xizmat qilish kabi ijtimoiy vazifani ham yuklaydi.

Shuning uchun katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan nikoh to'ylarini

o'tkazish jarayonida asosiy diqqatni ziyofatbozlikka emas, balki to'y qatnashchilarini ma'naviy oziqlanishga, yoshlar ongiga xalqimizni eng yaxshi fazilatlarini singdirish, yangi oilani mustahkam g'oyaviy-ma'naviy poydevorini yaratishga qaratilishi lozim. Zeroki, to'y marosimi oilani vujudga kelishida muhimdir. O'zbek oilasida nikoh to'yidan keyingi marosimlar ham bor. Bu marosimlar zahirida ham oilani mustahkamligi yotadi.

O'zbek oilasida yangi inson chaqaloq dunyoga kelishi bilan bog'liq bo'lgan an'analar tizimi alohida o'rin tutadi. O'tmishdagi odatlarga ko'ra kelin kuyov farzand ko'rgan ayol va chaqaloq yomon ruh va alvasti, jin, ajinalar va boshqalardan saqlanishi uchun chilla saqlangan. Chillali kelinchak uchun tug'mas ayol bilan ko'rishish xatarli hisoblangan.

Oilada bola tug'ilganda chilla davriga katta e'tibor beriladi. Chaqaloq tug'ilgandan so'ng yo'ldoshi tushgandan boshlab 5-6 kun og'ir holatdagi tug'ruq uchun 70 kun kerak bo'lishini ta'kidlaganlar. Chilla davrida biron bir kasofat sodir bo'lmasligi uchun ona va bola yolg'iz qoldirilmagan.

Farzand ko'rgan onaga chaqaloq tug'ilganining ikkinchi va uchinchi kunlarida qovurilgan tuhum yedirganlar va undan so'ng tovuq sho'rvasi ichirilgan. Chaqaloq tug'ilib 40 kunlik bo'lgandan keyingina hovliga olib chiqilgan. Katta chilla o'tgandan keyingina ayol ota-onasining uyiga borib yotib kelishi joiz deb bilishgan.

Keksalarni aytishicha 40 kun chilladan eson-omon chiqqan chaqaloqqa tashqaridan ta'sir etadigan ins-jinslarni kuchi yetmas ekan. Chaqaloqqa ism qo'yish inson hayotidagi muhim voqea hisoblanadi.

Qadimda ism qo'yish juda mas'uliyatli ish hisoblangan. Ism bola tabiatiga mos kelmasa undan yaxshi inson chiqmaydi yoki u kasal bo'laverar ekan. Chaqaloqqa ism qo'yish har kimga ham ishonib topshirilmagan. Buning uchun maxsus marosim uyushtirilib nufuzli, dono qariyalar taklif etilgan.

Islom diniga qattiq e'tiqod qiluvchi kishilar mulla, eshon chaqirib, chaqaloqning qulog'iga ozon aytirib, so'ng unga ism qo'yganlar. Oila hayotidagi eng muhim voqea farzand tug'ilishi bilan bog'liqdir. Bolalarning tug'ilgan kuni

oilada nishonlash kichkintoylar uchun katta bayram hisoblanadi. Qadimda kishilarimiz hayotida tug‘ilgan kun uncha nishonalanmagan. Yil boshi Navro‘zda yoshimizga bir yosh qo‘shildi deb hisoblaganlar. Tug‘ilgan kunni o‘tkazish o‘zbeklar uchun yangi odat. Muchal to‘yi 63 yoshga kirganda “payg‘ambar yoshi”ni nishonlash keng tarqalgan. Bu barcha odatlar, udumlar oilani vujudga kelishida muhim hissa qo‘shgan. Chunki qadimdan oila vujudga kelishi uchun ancha odatlar, marosimlar turli xil munosabatlarni bosib o‘tdi va oila deb atalmish go‘zal oshiyonni topishni va unda hayot gashtini surishdek imkoniyatni kishilarga berdi.

Urf-odatlar oilani vujudga keltirar ekan, vujudga kelgan oilani yanada mustahkamlash uchun yurtimizda ko‘p ishlar olib borilmoqda. Chunonchi 1998 yil “Oila yili” deb e‘lon qilindi. Xalqimizning asrlar davomida adolatli davlat, farovon jamiyat va erkin hayot qurish orzusi oila totuvligida namoyon bo‘ldi.

Oilaga munosabatimizni qadriyatli mazmun kasb etishi odamlar qalbida mudrab yotgan qancha-qancha oliyjanob ezgu-niyat va udumlarning yo‘nalishi barkamol avlod tarbiyalashdadir.

Bilamizki oila tabiatda barcha tirik jonzotlarni hayotiy asosi va jamiyatda insoniy turmush tarzining negizida yotuvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Boshqacha qilib aytganda, nemis faylasuflaridan biri aytganidek, “Oila tabiatning shoh asari” bo‘lib inson tafakkuri va ma’naviy hayoti uchun bitmas-tuganmas ijod bulog‘i, ilhom parisi, yangi-yangi g‘oyalarning xassosi, doyasidir.

Oila masalasi falsafiy bilimlarda azal-azaldan birinchi asosiy mushohada obekti bo‘lib kelgan. Tarixda yashab o‘tgan ijodkor faylasuflar ijodiy kamolotining eng yuqori cho‘qqisiga yetgan shu nozik masalaga murojaat etgan va nodir asarlar bitganlar.

Oilaning serqirra va murakkab jumboqlarni yoshiga qaratilgan harakat dunyo yaratilgandan buyon bir zum to‘xtagan emas, aksincha yangi g‘oyalar bilan davom etmoqda. Oilaviy hayotning sirli va jumboqli harakterda shakllanishi uni tabiiy va sotsial omillar bilan uzviy birlashib ketgan.

Odatda oila haqida so‘z borganda jamiyatning tirikchilik uchun jon olib jon

berayotgan kichik bir yacheykasi namoyon bo'ladi. Biz kishilik jamiyatining taraqqiyot tarixini yozishda xalq ommasi va shaxsning alohida roliga katta e'tibor beramiz. Muhim qadriyatlardan biri hisoblangan oila hozirgi davrda ham jamiyatning asosiy negizi hisoblanadi. Oilaning eng muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, uning ahilligi, mustaqilligi obodonchiligi va madaniyatlilik u yashayotgan jamiyatning farovonligi hamda ma'naviyat mezonini hisoblanadi.

Mehnatsevar va badavlat, ma'naviy yetuk va madaniyatli oila – jamiyatning asosini tashkil etadi. Hozirda O'zbekistonda 4 milliondan ortiq oila bor. Ularda barcha axloq-odob me'yorlari singdirilmoqda. O'zbek oilalari xorij oilalaridan farqlanadi. Lekin o'zbek oilasini boshqa mamlakatlar oilasiga o'rnatib qiladigan ko'p jihatlari bor.

Xulosa qilib aytganda, asrlar osha sayqallanib kelgan oilaviy bayramlarning, urf-odatlarining asosiy mohiyati inson va oila hayotidagi eng muhimi hisoblanadi. O'zbek oilalarida chaqaloq tug'ilib to voyaga yetguncha va o'zi oila qurguncha bo'ladigan urf-odatlar yangi oilani dunyoga kelishida muhimdir.

Urf-odatlar oilani vujudga kelishiga sabab bo'lsa, hozirda yurtimizda oilaga bo'lgan munosabat va qonunlar oilani mustahkam bo'lishiga va unda jamiyat uchun fidoiy insonlar bo'lishini ta'minlaydi.

Milliy urf-odatlar inson ya'ni bola tarbiyasida muhimdir. Bizning milliy urf-odatlarimiz zamirida faqat tarbiya yotadi. Buning uchun urf-odatlarining tub mohiyatini anglab yetish lozim.

Qadimda o'yinlarning turlari ko'p bo'lgan. Ot o'yin, do'ppi o'yin, hammompish, tosh o'yin, chillak o'yin, yong'oq o'yin, kurmatayoq, varrak o'yin va hokazo. Bolalar o'yinlari qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin, loy, tuproq bilanmi, barisi bolani hayotga, turmushga, ro'zg'or ishlariga tayyorlashda o'ziga xos hunar maktabi vazifasini o'tagan, "Chittigul", "Oq terakmi-ko'k terak" kabi qo'shiq o'yinlar turli ko'rinishlarda bizgacha yetib kelgan. Qadimda bolalar binafsha bayram qilishgan.

Chavgon sharq xalqlari orasida juda qadimiy o'yinlardan bo'lib, qoidalari va ko'rinishi jihatidan ko'pkari va xokkey o'yinlariga o'xshash bo'lgan, ot ustida

turib o'ynaganlar-chavgonchilar o'rtasida chavgon to'pi talash bo'lgan. Har ikki tomondan 5-6 o'yinchi ishtirok etib, raqib darvozasiga kim qancha to'p kiritisa, o'yin oxirida o'sha tomon g'olib hisoblangan.

Ko'pkari uloq – o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik xalqlariga birday qadrdon. Ko'pkari bu chavandozlik bahsi. Musobaqa sharti o'rtaga tashlangan uloq tanasini taqimga bosib maydonni aylantirgancha belgilangan manzilga tashlansa sovrinlar bilan mukofotlanadi. Ko'pkari tinchlik, xotirjamlik o'yini bo'lib, xalq suyangan haqiqiy er-yigitlarni yetishtirishda katta rol o'ynagan. Ko'pkarida minilgan otning ahamiyati katta.

Yuqorida yozilganidek, urf-odatlarini hayotimizni har jabhasida kuzatish mumkin. Urf-odatlar, qadriyatlar insonning ma'naviy-axloqiy barkamolligi negizidir. Sharq falsafasi tarixidan insonning ta'lim tarbiyasi, odob-axloqi haqida juda ko'p qimmatli maslahatlar, fikr-mulohazalar mavjud. Sharq falsafasi va islom tarbiyasida rahm-shafqat, muruvvat, odamiylik, insoniylik kabi fazilatlar ulug'langan.

Odamiylik – bu kishining boshqa odamlarga, urug'-aymog'iga mehr-shafqat ko'rsatishi, yaxshilik qilishini, insonparvarlik munosabatini bilishni taqazo etadigan fazilatdir.

Milliy urf-odatlarini tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Ma'lumki, qadimiy urf-odatlarimizga ko'ra, o'zbek oilalarida ayniqsa, ko'p bolalai oilalarda bola yoshligidanoq mehnat quchog'ida tarbiyalanadi. Oilada ota-onaga yordam berib mustaqil mehnat qilishga intilib, hech bir bola mayib bo'lgan emas.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng yoshlarni tarbiyasi mazmun va mohiyatida usul va shakllarida jiddiy o'zgarishlar bo'ldi. Maktablar milliylashtirildi, ta'lim-tarbiyaga milliy urf-odatlarini, ya'ni qadriyatlarini joriy etish asosiy o'rin tutadigan bo'ldi.

Tariximiz, madaniyatimiz milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi. Yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilimni sevish va ardoqlash olimu-fuzalolarni, ustozlarni hurmat qilish,

mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqgo'ylik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham ibrat bo'ladigan ajoyib qadriyatlarimiz bor. Lekin shuni chuqur taassuf bilan aytib o'tish kerakki, hozirgi kunda yoshlar o'rtasida yangi urf-odatlar paydo bo'lgan. Bulardan biri ko'cha ko'yda turli xil jargon so'zlardan foydalanib baqirib gapirish. Nazarimizda ular so'rashayotganda ham bir-birlarini so'kib ko'rishar ekanlar. Zeroki, bizning qadimgi urf-odatlarimizda nutq madaniyatini nihoyatda e'zozlaganlar. Bu xususda A.Navoiy "Tilga e'tiborsiz elga e'tiborsiz"dir deganlar. milliyligimizdan umuman yiroqda bo'lgan yangi odat "Den Valentina" ya'ni "Sevishganlar kuni"ni nishonlash Yevropa turmush-tarziga xos ko'rinishlardandir. Ayrim o'quv muassasalarida bu kunni bayram sifatida qabul qilinib, bayramlar qilinadi. Bu esa bizning urf-odatlarimizda bunday holatlar o'ta uyatli hisoblangan, vaholanki bunday hol milliy urf-odatlar bilan tarbiya ko'rgan yoshlarni Sharqona turmush-tarziga ziddir. Bizda sevgi pinhona bo'lgan, bu bizdagi sharmu-hayo degan bir parda bilan to'silgan. Ota-ona oldida bunday gaplarni gapirish xattoki uylanaman deyish ham uyat hisoblangan. Bunday Yevropacha bayramlarni qo'yib, o'zimizni Navro'z bayramini olaylik. Bu bayram orqali yoshlarga bilim, milliy urf-odatlarni o'rgatamiz. Bu bayramda insonlar bir-birlarini ko'nglini ko'tarishadi, xursandchilik qilishadi, bu esa odamiylikdir. Xafalashib yurganlar yarashadilar bu esa – mardlikdir. Nogiron, dardmandlarga, muhtojlarga yordam beradilar – bu esa tantilik, saxiylikdir.

Mana Navro'z bayrami nafaqat bayram balki insoniylik tuyg'ularini namoyon qiladigan milliylikka yo'g'rilganligi bilan ajralib turadi. Yoshlarning tarbiyasida milliy urf-odatlar keng ahamiyat kasb etadi. Bizning odatlarimizga ko'ra ayol nozik xilqat. Ana shunday nomni asrlar mobaynida onalarimiz gard yuqtirmay olib bizgacha yetib kelgan. Milliy urf-odatlarimizga ko'ra qiz bola sharm-hayoli, iboli bo'ladi.

Bu degani kiyinishda ham, gapirishda ham, kulishda ham me'yorni biladi deganidir. Yaqin o'tmishda onalarimiz, opalarimiz kiyinishga qattiq e'tibor berganlar. Chunki inson ustidagi kiyim bilan kimligini namoyon qiladi.

Kiyilgan kiyim nafaqat yarashishi balki, kishi tanasini ham issiq tutishi kerak. Hozirda urf bo'lgan umuman milliyligimizga yot bo'lgan kiyimlar esa kishini salomatligini kafolatlay olmaydi. Chunki kiyganda qorni ochiq, engashganda beli ochiq kiyimlar, tor shimlar bo'lg'usi onalarimiz, milliy qadriyatlarni davomchilarini dunyoga keltiruvilar sog'ligi uchun zarur deb hisoblanadi.

Bizni miliy urf-odat, qadriyatlarimizga asoslanib tikilgan kiyimlarni kiygan qizlarni naqadar odobli, axloqli ekanligini yaqqol namoyon etadi. Nafaqat qizlar aksariyat yigitlarimiz ham kulgili odatlar ketidan quviydilar. Quloqlarini teshib sirg'a taqishlar, sochlarini yelka barobar o'stirib ko'cha ko'yda kulib yurishlari bizdek miliy g'ururi kuchli, Alpomishu, Go'ro'g'li, Shiroq yana ko'plab mard, botir vatanparvar er yigit va'dasini o'limdan ham kuchli deb bilgan ma'naviy boy bo'lgan xalqimizni milliy qadriyatlarini bilmasliklaridan emasmi. Shuning uchun joylarda milliy qadriyatlar – urf-odatlarga kuchli e'tibor berilmoqda. Agar farzandlarimiz o'z milliy urf-odatlarimizni bilsalar undan naqadar ko'p man'naviy ozuqa olishlarini tasavvur ham eta olmaydilar. Yana shu o'rinda aytib o'tish kerakki, xalqimiz ayniqsa erkaklar o'z milliy kiyimlarini kiyishdan uzoqlashib ketmoqda. Shuning uchun ham bu kiyim davrga qarab o'zgarmay kelaveradi. Yoshlar esa bu kiyimni kiyishni hohlamaydilar. Bu o'rinda yoshlarni ayblash ham noto'g'ri Sharqdagi barcha issiq mamlakatlar qachonlardir bizning ota-bobolarimiz kiygan milliy liboslarni kiyib yuradilar. Bu kiyim issiqda qulaydir.

Ammo sharqdagi barcha mamlakatlarda ham milliy libos bilan bir qatorda Yevropacha libos ham urf bo'lgan. “O'rta Osiyo va Qozog'iston Diniya boshqarmasi” xodimi jurnalistga shunday deydi: O'zbekistonga Saudiya Arabistonidan mehmon keldi, u to'yga bordi ta'ziya marosimida ham bo'libdi, to'ylarimiz dabdabali bo'layotgani, ta'ziya marosimini mehmondorchilikka aylanib ketayotgani uni hayratga soldi. Kuzatuv paytida esa unga to'n kiygazishdi bunga u yana bir karra lol bo'ldi. Agar bu miliy libos bo'lsa nega uni hech kim kiymayapti dedi, xayron bo'lib. Bunga men quyidagicha aytmoqchiman: biz kiyishga qulay bo'lgan milliy liboslarni qaytadan urf qilish lozim.

Xorijdan keltirilayotgan axloqiy g'oyaviy sust, ur-yiqit, jinsiy aloqa, giyohvandlik, terrorizmni targ'ib etuvchi kino-video mahsulotlarini savdoga chiqarmaslik kerakmi? Yo'q albatta. Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan ekan yuqorida aytgan mahsulotlarni istaymizmi, yo'qmi bu jumhuriyatimizga qay yo'l bilan bo'lsa ham olib kirilaveradi. Bu tabiiydir. Bu ma'muriy yo'l bilan to'xtatib bo'lmaydi. Lekin bunday jarayonga biz hech qanday ta'sir eta olmaymiz degan xulosaga kelishimiz noto'g'ridir.

Fikrimizcha, chet ellardan kirib kelayotgan milliy urf-odat, an'analar va ma'naviyatimizga tamomila zid bo'lgan axloqiy buzqlik, hayosizlik va be'manilikni yoqlovchi asarlarga qarshi o'zimizning ko'p asrlik tarixga ega jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan sharqona yuksak madaniyatimizni qalqon qilib qo'yishni bilishimiz kerak. Bunga erishish uchun har bir kishida biz yuksak madaniyat va ma'naviyat vorislari ekanimizni va bu bilan qanchalik fahrlansak arzirlik ekanligi haqida his tuyg'ullarni hosil qilishimiz darkor. O'zini yuksak madaniyatli millatga mansub ekanligini ongli ravishda his qiluvchi va bu bilan qonuniy ravishda fahrlanuvchi insonni va xech qachon ma'naviy axloqiy va g'oyaviy jihatdan past madaniyatga qaram qilib qo'yish mumkin emas. Shunday ekan bugungi kunda yoshlarimizning madaniy saviyasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish yoshlarga milliy qadriyatimiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimizni yanada chuqur va to'la o'zlashtirib olishimiz va har tomonlama ko'maklashish bilan bir qatorda o'tmishda keng qo'lanilgan siyosiy oqartiruv ishlarini jonlantirish oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktablarda mehnat jamoalarida siyosiy o'quv o'tkazishimiz kerak. Boy va rang-barang madaniyatimiz, urf-odat va an'alarimiz millatimizning ma'naviy ruhiy boyligini tashkil etadi.

Shu o'rinda "Buvijonlar o'giti" misolida ayrim tarbiyaviy misollarni keltirish mumkin. Albatta sharm-hayo, ibo ham ilm ham faoliyatdir. Sharmu hayo insonlarni gunohlardan, xunukliklardan saqlayaptimi, uning ilmliligi va bunyodkorligi shundandir. Masalan, sen ko'chaga kalta yubka va har xil turdagi kiyim kiyib chiqding. Imoni butun erkaklar bunday manzaraga, nafaqat unga xech

bir ayolga sinchiklab qaramaydi. Zotan, bu turfa dunyo fe'llar ham turfa. Zoti yengillar kishi hamisha shaytonga qullikka ham rozi bo'ladi. Kimdir senga nafs ko'zi, behayo nigoh bilan qarab qo'yishi mumkin. Eng yomoni uni gunohkorligiga sen sababchidirsan. Shu o'rinda pardoz xususida ham to'xtalib o'tish kerak bo'ladi. Har bir xalqning udumida yozilmagan ta'qiq va tavsiyalar bor, bizda ham shunday. Masalan, pardoz faqat kelinlarga buyuriladi. Onalarimiz ham, qiz bolani husni o'ziga yetadi, mening ostonamda odmi yur, eson-omon egangga topshirib olay, hamma yasan-tusaningni o'sha yerda qilasan deb aytardilar.

Hamma orzu havaslar kelinlikka qoldirilar edi. Yoshligimizda qizlarni bashang libosda ko'rib qolsak kelin bo'libdi-da der edik. Kelinlik kumushdek qizlarni oltinday yaraqlatib yuborar edi. Nazarimda kuyovni hovlisida oydekkina bo'lib kirgan qiz u yerdan ertaklardagi malikaga aylanadi. Kelinlik davri bir orolanish davri. Qo'g'irchoq o'ynab yurgan qizlardan so'rasak u ham kelin bo'laman deb javob beradi. Qizlarni ixlos qo'ygan pardoz buyumi bu o'sma edi. Yuzlariga kechqurun qatiq surkab oqartirilar edi. Upa-enlik surtgani uyatar edilar. Qizlarimizni farzandlarimizni pokligi, kamtarlikka o'rgatadigan o'sha qadriyatlarimiz hozir ham tirik. Xalqimizni didi hali o'shanday. Esingda bo'lsinki yuzni rasm daftar bo'yagandek bo'yash shart emas, qiz bola uchun bu uyat hisoblanadi. Inson oqko'ngil bo'lishi, ota-ona duolari, oq yuvib oq tarashlardan iborat, qiz bola kaftga qo'nib turgan oppoq kabutar. Shu aslingda tur deyilgan momolar o'gitida.

UMUMIY XULOSALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Oilaning farovon va har tomonlama rivojlanishida ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida mahallaning oʻrni katta. Zero, oʻsmirlar odobni, muomala madaniyatini dastlab oilada, keyin mahallada oʻrganadilar. Xalqimizda qoʻshnilar bilan tinch-totuv yashash azaldan qadrlanib keladi. «qoʻshning tinch - sen tinch», «uzoqdagi qarindoshdan, yaqinidagi qoʻshni afzal», «hovli olma - qoʻshni ol» kabi maqolalar ana shundan dalolat beradi.

2. Mahalla – avvalo, sogʻlom ijtimoiy muhit maskanidir. Bu yerda kuchli taʼsirga ega boʻlgan jamoatchilik fikri mahalla axlining xulq - atvori, oʻzaro munosabatlarini adolat va maʼnaviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu maʼnoda mahallani demokratiya darsxonasi, deb ham atash mumkin.

3. Mahallada keng jamoatchilik oʻrtasida mafkuraviy ishlarni samarali yoʻlga qoʻyish uchun katta imkoniyatlar mavjud ayniqsa, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, el-yurt shaʼni uchun kurash kabi fazilatlarni kamol toptirishda mahallaning oʻrni beqiyos.

4. Mahallaning eng birinchi vazifasi ham mahalla axlining sogʻligi haqida qaygʻurishdir. Albatta, oila aʼzolarimiz, ayniqsa, farzandlarimiz aqlan va jismonan sogʻlom boʻlmas ekan, huquqiy demokratik davlatning bundan keyingi rivojiga hissa qoʻsha oladigan barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazib boʻlmasligi kunday ravshandir.

TAVSIYALAR

○ har bir jamiyatning, tuzumning tarixiy rivojlanishida yoshlar muammosining mavjudligi, ularda sogʻlom turmush tarzini shakllantirish masalalarining etakchiligi va bu masalaning asosiy qismining yechimlari taʼlim-tarbiya jarayoniga bogʻliq. Xususan bu jarayonda “Mahalla va oʻquv maskani” hamkorlik tizimi masalalari ustuvorlik qiladi;

○ mahallada sanitariya va gigiena ishlariga aholining eʼtiborini qaratish, yaʼni hasharlar uyushtirish, tozalikka, tartibga, koʻkalamzorlashtirishga eʼtibor

berish zarur. Bu udum albatta bizga ota-bobolarimizdan o'tib kelayotganligini unutmasligimiz shart;

- mahalla yig'inlarida, maktablarda, boshqa o'quv maskanlarida va xatto bog'chalarimizda ham, «Sog' tanda – sog'lom aql» mavzuida suhbatlar va uchrashuvlar o'tkazilib borilishi kerak. Bu ishlarda mahallalararo musobaqalar o'tkazilsa albatta yaxshi natijalarga erishish mumkin;

- aholini jismonan sog'ligini tiklash bilan bir qatorda aqlan sog'ligini ta'minlash ham katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun mahalla xududida, bolalar bog'chalarida, maktablarda madaniyat ma'rifat xonalari va kutubxonalar tashkil etilib, bu xonalar va kutubxonalar davlatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab qabul qilingan hamma Qonunlar, hujjatlar, ilmiy-ommabop kitoblar, badiiy asarlar bilan ta'minlanishi shart. Tez-tez savol javob kechalari uyushtirilib turilsa, o'ylaymizki, mahalla aholisining bilim saviyasi yanada oshadi;

- tumanlardagi har bir mahallada bo'sh yotgan maydonlardan foydalanib, «Sog'lomlashtirish» sport maydonchalari tashkil etilsa, mahallada yashovchilar uchun juda qulay sharoit yaratilgan bo'lur edi. Albatta bu ishlarni amalga oshirish uchun tuman xokimlari yordamlarini ayamaydilar degan umiddamiz.

- fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarida tashkil etilgan hayriya jamg'armalari faoliyatini yanada jonlantirib, mahalla aholisining moddiy va ma'naviy yordamga muxtoj bo'lgan yolg'iz qariyalariga, kasalmandlarga va nogironlarga e'tiborini kuchaytirib, turli tadbirlar o'tkazib turish maqsadga muvofiqdir. Tadbirlarga mahallada joylashgan korxona, muassasa va tashkilotlar jalb qilinishi shart.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-8
1 BOB. MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA AN'ANALARNING BARKAMOL AVLOD KAMOLOTIGA TA'SIRI.....	9
1.1. Mahalla faoliyatida undagi ijtimoiy xususiyatlarning ustuvor jihatlari.....	9-14
1.2. O'smirlik yoshining ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatlari.....	14-19
1.3. Jamoatchilik nazoratida mahalliy o'zini o'zi boshqaruvning tutgan o'rni.....	19-25
2 BOB. MAHALLA FAOLIYATIDA IJTIMOIIY XUSUSIYATLAR VA AN'ANALARNING O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILAR TARBIYASIGA TA'SIRIDAGI USTUVOR JIHATLAR.....	26
2.1. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mahallaning tutgan o'rni.....	26-29
2.2. O'smir yoshdagi o'quvchilar tarbiyasida oila bilan mahalla jamoasining o'zaro muloqoti masalalari.....	29-40
2.3. Mahallaning tarbiyaviy ta'sir kuchida va ijtimoiy taraqqiyotida urf- odatlarining tarixiy ahamiyati.....	40-48
2.4. Oilalarning vujudga kelishida urf-odatlarining o'rni.....	48-63
UMUMIY XULOSALAR VA TAVSIYALAR.....	64-65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	67-68

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29-b.
2. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" //Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Xotin-qizlar Qo'mitasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi» 2004 yil 25 maydagi Farmoni. // "Xalq so'zi", 2004 yil 26 may.
4. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasidagi ma'ruzasi. // "Xalq so'zi", 2003 yil 25 aprel.
5. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, 2010 yil 29 yanvar.
6. Karimov I.A. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. T.: "O'zbekiston", 2003.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008. -176 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O'zbekiston, 2011. – 440 b.
9. Avloniy A. "Turkiy Guliston yoxud axloq". T.: "O'qituvchi". 1992.
10. Mahmudbekov Sh. Mahallada o'zini o'zi boshqarish tizimi: tarixi va bugungi kuni. –T.: "Akademiya", 2004, 80-b.
11. Nazarov K.N. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). –T.: "Faylasuflar milliy jamiyati", 2004.
12. Rahbar va xodim (to'plam). Mas'ul muharrir A.Azizxo'jaev. –

T.: "Akademiya", 1998.

13. Raxmonqulov X. Fuqarolik: huquqlar, erkinliklar, burchlar. -T.: O'zbekiston, 1991.
14. Rumiyl Jaloliddin. Ma'naviy masnaviy. J.1. K.1. (Tarjima sharhi bilan /Tarjimon A.Maxkam; Mas'ul muharrir T.Maxmudov/.--T.: "Sharq", 1999.
15. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri (Tanlangan asarlar). -T.: "Abdulla Kodiriy nomidagi xalq merosi", 1993.
16. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2000. -216 b.
17. Yusupov E, Yusupov O'. Oila – ma'naviyat bulog'i. –T.: AsrMatbuot, 2001. – 130 b.
18. Hasanboeva O., Holiqov D., Toshpo'latova Sh.K., Nurmatova N.Sh. va boshq. Oila pedagogikasi. –T.: Aloqachi, 2007. – 382 b.
19. Hillari Rodem Klinton. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona yoki bolalar bizga berayotgan boshqa saboqlar.
20. XXI asr oilasi konsepsiyasi. –T.: "O'AJBNT" Markazi
21. "Oila va jamiyat" gazetasi. 2012, 14 mart, №11.
22. <http://www.ziynet.uz>.